the mobility of ammonia molecules on the adsorbent surface is high, whereas above 1 mmol/g, strong fixation of ammonia molecules on the adsorbent is observed.

Keywords: bionanocomposite, adsorption, isotherm, diacetate cellulose, silica, ammonia, differential heat and entropy.

KIRISH

Tadqiqot dolzarbligi. Atmosfera havosining zararli gazlar bilan ifloslanishi zamonaviy ekologik muammolardan biri bo‘lib, ularning orasida ammiak (NH_3) sanoat va qishloq xo‘jaligi manbalaridan keng miqyosda ajralib chiqishi bilan alohida ahamiyatga ega. Ammiakning past konsentratsiyalarda ham inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta’siri uni samarali adsorbsiyalash uchun yangi materiallar yaratishni talab etadi. So‘nggi yillarda ekologik toza va yuqori samarali adsorbentlar sifatida organik–noorganik gibrid bionanokompozitsiyalarga qiziqish ortib bormoqda[1-3]. Ushbu jihatdan, biologik parchalanadigan va funksional guruhlarga boy diatsetatsellyuloza hamda yuqori sirt maydoni va barqarorligi bilan ajralib turuvchi kremnezem kombinatsiyasi istiqbolli hisoblanadi. Zol-gel usuli esa past haroratlarda g‘ovak tuzilishga ega, bir jinsli DAS-kremnezem gibrid materiallarini sintez qilish imkonini beradi[4,5]. DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasining ammiak molekulalarini adsorbsiyalash xossalarini o‘rganish gaz tozalash va sensor tizimlari uchun yangi funksional materiallar yaratish nuqtai nazaridan ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi[6,7].


Tadqiqotning maqsadi DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak molekulasini 303 K da adsorbsiyalanish izotermasi, termokinetikasi, differensial issiqligi va entropiyasini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi: Zol-gel usulida olingan DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasini ammiak molekulasi bilan adsorbsiyalanish izotermalarini o‘lchash uchun universal yuqori vakuumli pretsizion adsorbsion-kalorimetrik uskuna va unga ulangan Tian-Kalve DAK-1-1A turidagi differensial mikrokalorimetrli sistemadan foydalanildi.


OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING XULOSASI

DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak gazi past nisbiy bosimda $\ln(p/p_o)=-9,0$ adsorbsiyalanish miqdori 0,36 mmol/g gacha izoterma chiziqli ravishda ko‘tarilib, undan so‘ng bosim ortib borishi bilan egri chiziq monoton ravishda 2,0 mmol/g gacha ortib borib to‘yindi(1-rasmda). Izotermaning keskin ko‘tarilishi bionanokompozitda faol markazlar mavjudligini, unda tezda adsorbsiya sodir bo‘lishini, shuningdek mikrog‘ovaklarning bir xilligi va yuqori sorbsion qobiliyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. 303 K da DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak molekulasini adsorbsiyalanish izotermasi



2-rasm. 303 K da DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak molekulasini adsorbsiyalanishini MHTN tenglamasi bilan hisoblab topilgan qiymatlarini izotermasi

2-rasmda gibrid DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitsion materialiga ammiak gazining adsorbsiyalanish izotermasi mikro-g‘ovaklarning hajmiy to‘yinish nazariyasi (MHTN) tenglamasi bilan tahlil qilindi[8-11]. 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, MHTN bo‘yicha hisob-kitob qilib olingan ma’lumotlar eksperimental ma’lumotlarga mos keladi.

Bunda DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak gazini adsorbsiya izotermasi MHTN ning uch a’zoli tenglamasi bilan yaxshi ifodalandi:

$$a= 0{,}358 \exp [-(A/30{,}10)]^9 + 0{,}953 \exp [-(A/19{,}35)]^5 + 5{,}014 \exp [-(A/1{,}43)]^3$$


Tenglama parametrlari: birinchi qism ulushi a_{01}=0,358 mmol/g, ulushi E_{01}=30,10 kJ/mol, ulushi n_1=9; ikkinchi qism uchun ulushi a_{02}=0,953 mmol/g, E_{02}=19,35 kJ/mol, n_2=5; uchinchi qism uchun a_{03}=5,014 mmol/g, E_{03}=1,43 kJ/mol, n_3=3.

MHTN DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitini ammiak gazi bilan adsorbsiyalanishini asosan uch tipdagi adsorbsion fazalarda kechishni ko‘rsatdi. Bunda ammiak gazi bilan adsorbsiyalanishi birinchi adsorbsion fazada 5,7 % ga yaqini, ikkinchi adsorbsion fazada 15 % , uchinchi fazada esa deyarli 80 % yaqini bo‘lish bilan sodir bo‘lar ekan.

ISSN 3030-3907

Adsorbsion markazlarning soni, kuchi va lokalizatsiyasi, nanokompozitsion materialning tuzilishi, qutbli molekulalarning adsorbsiyasi mexanizmi, molekulalararo ta’sirlashuv tabiati, konformatsiyasi va adsorbsion klasterlarning holatini aniqlash uchun molekulyar tuzilish va termodinamik tavsiflar o‘rtasida korrelyatsiya o‘tkazildi hamda adsorbsiya termokinetikasi o‘rganildi[12].

3-rasmda adsorbsion muvozanat o‘rnatilish vaqti (τ) ning DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitida ammiak molekulasi bilan adsorbsiyalanish miqdoriga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Dastlabki ammiak molekulalarining adsorbsiyasi sekinlashgan bo‘lib, muvozanat qaror topish vaqti 6,5 soatni tashkil etdi, adsorbat miqdori deyarli 0,131 mmol/g ga teng bo‘lganda esa bu vaqtning 2,88 soatgacha kamayishi kuzatildi.




3-rasm. DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak molekulasini adsorbsiyalanish qiymatiga bog‘liq holda adsorbsion muvozanat qaror topish vaqti

So‘ngra DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitining ammiak molekulasi bilan adsorbsiyalanishining termokinetikasida muvozanat vaqti dastlab pog‘onasimon, keyinchalik esa chiziqli ravishda o‘zgarib, adsorbsiyaning yakuniy muvozanat qaror topish vaqti taxminan ≈1,5 soatga teng bo‘ldi.

Adsorbsiya termodinamikasini o‘rganish borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan. Adsorbent g‘ovaklarida turli tuzilishga ega bo‘lgan adsorbat molekulalari yutilishida adsorbat-adsorbent va adsorbat-adsorbat ta’sirlanishlarni o‘rganish uchun adsorbsiya issiqligi va entropiyasini o‘rganish muhim hisoblanadi. Peltye effekti yordamida issiqlik

ISSN 3030-3907

oqimlari kompensatsiyasi usulini qo‘llash adsorbsiya issiqligini yanada aniq o‘lchash imkonini berdi. Adsorbsion o‘lchashlar universal yuqori vakuumli qurilmada o‘tkazildi, bu o‘z navbatida adsorbsion o‘lchashlarni o‘tkazish va yuqori aniqlikda adsorbatni yuborish imkonini berdi[13,14]. Rasmda DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitida ammiak gazi bilan adsorbsiyasining differensial issiqligi keltirilgan.



4-rasm. 303 K da gibrid DAS-kremnezem bionanokompozitsiyasiga ammiak gazi bilan adsorbsiyalanishini differensial issiqligi. Shtrix chiziq 303 K da ammiakning kondensatsiyalanish issiqligi.

DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga dastlabki ammiak gazi adsorbsiyasining differensial issiqligi 38,7 kJ/mol ga teng bo‘ldi. So‘ngra esa, ammaik gazini adsorbsiyalanish issiqligi pog‘onasimon ravishda davom etdi, uni shartli ravishda ikkita katta gidrofil markazga ajratib oldik. Birinchi energetik gidrofil sohada ammiakning adsorbsiyasi 0,07-0,467 mmol/g ichida o‘zgaradi va adsorbsiya issiqligining 34,10 dan 29,50 kJ/mol gacha keskin pasaydi. Bunda birinchi soha adsorbent tarkibida mavjud funksional guruhlar, ikkinchi gidrofil soha esa adsorbentni g‘ovakli qatlamlari bilan ammiak molekulalarini ta’sirlashishi natijasida hosil bo‘lmoqda deyish mumkin. Bunda Q_d egri chizig‘ining zinalariga muvofiq, uni 9 qismga ajratish mumkin, adsorbsiya issiqligi 29,5 kJ/mol dan kondensatsiya issiqligigacha o‘zgaradi. Ikkinchi gidrofil markazlarda, Q_d egri chizig‘ining zinalariga muvofiq, uni 9 qismga ajratish mumkin, adsorbsiya issiqligi 29,5 kJ/mol dan kondensatsiya issiqligigacha o‘zgaradi. Izotermalarning murakkab tabiati va adsorbsiya differensial issiqliklarining qiymatlari adsorbat va adsorbent orasidagi hamda adsorbatlar orasidagi adsorbsion o‘zaro ta’sirning mayda qismlarigacha aks ettiradi. Ikkinchi nisbatan past energetik gidrofil sohada ammiak molekulasining adsorbsiyasi 0,467 mmol/g dan to‘liq to‘yingungacha o‘zgaradi va


ISSN 3030-3907

9 qismning har biri uchun u 0,2 mmol/g ni tashkil qiladi va shu bilan birga adsorbsiya issiqligining kam pasayishi bilan tavsiflanadi 29,5 kJ/mol dan taxminan ammiakning kondensatsiyalanish issiqligi (20 kJ/mol)gacha.

Demak DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak gazining adsorbsiyalanishi ikkita gidrofil markaz bo‘yicha sodir bo‘lib, unda adsorbsiyalanishning sof issiqligi ≈10 kJ/mol ga teng. Adsorbsiyalanish issiqligi pog‘onasimon ko‘rinishda ekanligi hamda dastlab miqdori 0,4 mmol/g aktiv markaz hamda 0,2 mmol/g ga teng bo‘lgan ammiak gazi bo‘yicha gidrofil markazlarga teng bo‘lgan g‘ovakli qatlamlar borligi va adsorbat 38,7 kJ/mol ga teng bo‘lgan issiqlik bilan adsorbent-adsorbat ta’sirlashish sodir bo‘lib, polimolekulyar adsorbsiyalanish jarayoni ketishini ko‘rsatdi.

Adsorbentlarga turli xil molekulalarning adsorbsiyalanishida ularning adsorbent–adsorbat va adsorbat–adsorbat ta’sirlashishlarini o‘rganishda adsorbsiya issiqligidan tashqari uning entropiyasini ham tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Ammiak gazining DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga adsorbsiya entropiyasi (ΔS_d) Gibbs–Gelmgolts tenglamasiga ko‘ra adsorbsiya izotermasi va differensial issiqligidan kelib chiqib hisoblandi [15].



5-rasm. 303 K da DAS-kremnezem gibrid bionanokompozitsiyasiga ammiak molekulasi bilan adsorbsiyalanishini differensial entropiyasi. Shtrix chiziq– o‘rtacha molyar integral entropiya; Suyuq ammiakning entropiyasi nolga teng deb qabul qilingan.

5-rasmda ammiak gazining DAS–kremnezem gibrid nanokompozitsiyasiga adsorbsiyalanishining differensial adsorbsiya entropiyasi o‘zgarishining uning adsorbsiyalanish miqdoriga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitiga adsorbsiyalangan ammiak gazining o‘rtacha mol integral entropiyasi 22,04 J/mol·K ga teng. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, adsorbat miqdori 1 mmol/g gacha bo‘lganda adsorbent sirt

ISSN 3030-3907

yuzasidagi ammiakning harakatchanligi yuqori bo‘lar ekan. 1 mmol/g dan so‘ng ammiak molekulalarining adsorbentga mustahkam ravishda joylashgani kuzatiladi. Adsorbentga adsorbsiyalangan ammiak gazining miqdori ortishi bilan 1,97 mmol/g dan so‘ng adsorbat molekulalarining harakatchanligi yana ortib borishi aniqlandi.

XULOSALAR

1. Pretsizion adsorbsion-kalorimetrik usul yordamida DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitining ammiak molekulasi bilan adsorbsiyalanish izotermalari olindi;

2. Olingan izotermalar mikrog‘ovaklarning hajmiy to‘yinish nazariyasi tenglamalari asosida ishlab chiqildi. Ammiak molekulasining adsorbsiyalanish izotermasi gibrid bionanokompozitda mikrog‘ovaklarning hajmiy to‘yinish nazariyasining uch a’zoli tenglamasi bilan yaxshi ifodalandi;

3. DAS–kremnezem gibrid bionanokompozitida ammiak molekulasining adsorbsiyalanish termokinetikasi shuni ko‘rsatdiki, adsorbsion muvozanatni o‘rnatish vaqti sekinlashgan bo‘lib, u 6,5 soatni tashkil etdi;

4. Diatsetatsellyuloza-kremnezem gibrid bionanokompozisiyasiga ammiak molekulasi bilan adsorbsiyalanishini differentsial issiqligi pog‘onasimon o‘zgarishi hamda issiqlik qiymati 38,7 kJ/mol ekanligi aniqlandi;

5. Differensial molyar entropiya egrisi ammiakni miqdori 1 mmol/g gacha bo‘lganda adsorbent sirt yuzasidagi harakatchanligi yuqori, 1 mmol/g dan so‘ng ammiak molekulalarining adsorbentga mustahkam ravishda joylashgani kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amanda M.B. Furtado,Yu Wang, M. Douglas LeVan. Carbon silica composites for sulfur dioxide and ammonia adsorption. J. Microporous and Mesoporous Materials. Volume 165, (1). 2013, P. 48-54.

2. Musawenkosi G. Shange et all. (2024) Factors Affecting Silica/Cellulose Nanocomposite Prepared via the Sol–Gel Technique: A Review. J. Materials 2024, 17(9), 1937. P.1-23.

3. Inês Portugal, Vânia M. Dias, Rui F. Duarte, Dmitry V. Evtuguin. Hydration of Cellulose-Silica Hybrids Assessed by Sorption Isotherms// J. Phys. Chem. B. -2010. -V.114(11). -R. 4047-4055.

4. Vitaly Kocherbitov, Stefan Ulvenlund, Maria Kober, Kjell Jarring, and Thomas Arnebrant. Hydration of Microcrystalline Cellulose and Milled Cellulose Studied by Sorption Calorimetry // The Journal of Physical Chemistry B, 2008, 112(12), P. 3728–3734.

5. Ahmed Salama. Polysaccharides-silica hybrid materials: New perspectives for sustainable raw materials // Journal of Carbohydrate Chemistry. 2016. V.35(3). -P. 131-149.

ISSN 3030-3907

6. Hua Zou, Shishan Wu, Jian Shen. Polymer/Silica Nanocomposites: Preparation, Characterization, Properties, and Applications // Chemical Reviews. -2008. -V.108(9). -R. 3893-957.
7. Sadanand Pandey, Shivani B. Mishra. Sol-gel derived organic-inorganic hybrid materials: Synthesis, characterizations and applications // Journal of Sol-Gel Science and Technology. -2011. -V.59(1). -P.73-94.
A.Yarkulov, B. Umarov, F. Rakhmatkarieva, N. Kattaev, Kh. Akbarov, E. Berdimurodov. Diacetate Cellulose-Silicon Bionanocomposite Adsorbent for recovery of Heavy Metal ions and Benzene Vapours: An Experimental and Theoretical Investigation// Biointerface Research in Applied Chemistry- Open-Access Journal (ISSN: 2069-5837). –2022, –V. 12(3), –P. 2862-2880
8. A.Yu. Yarkulov, B.U. Sagdullayev, B.S. Umarov, F.G. Rakhmatkariyeva, Kh.I. Akbarov. Precision Adsorption–Calorimetric Investigations Of Thermodynamic Properties Of Hybrid Nanocompositions Of Diacetate Cellulose–Silica. International Journal of Advanced Science and Technology 2020,V.29(12), P. 2936-2943
9. А.Ю. Яркулов. Термодинамические свойства гибридных диацетат целлюлозы кремнеземных нанокомпозиций. СамДУ илмий ахборотнома. Самарқанд 2020. 3-сон (121) – С. 50-54.
10. А.Ю. Яркулов. Gibrid diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan molekulasining adsorbsiyalanishini turli xil adsorbsion modellar bilan tahlili. Namangan Davlat Universiteti Ilmiy axborotnomasi. Namangan. 2025. 6-son. B.102-106.
11. А.Ю. Яркулов. Gibrid diatsetatsellyuloza-kremnezem bionanokompozitsiyasiga n-geptan molekulasining adsorbsiyalanishi. O`zMU xabalari. Toshkent. 2024 3/1 son. B. 475-479.
12. J.K. Mamatov, A.Yu. Yarkulov, F.G. Rakhmatkariyeva, N.I. Fayzullayev, Kh.I. Akbarov. Physical and Chemical Properties of Hybrid Polyacrylonitryl-Silica Nanocomposites // International Journal of Control and Automation –2020, –V. 13, №4, P.220 – 229
13. Akhror Yarkulov, Mirazim Sobitov, Bakhrom Umarov, Feruza Rakhmatkarieva, Bakhtiyor Sagdullaev, Khamdam Akbarov. Thermodimics of adsorbtion of heptane molecules by hybrid bionanocomposite diacetatecellulose-silica. Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them AIP Conf. Proc. 3045, 030062-1–030062-6.
14. Яркулов А.Ю., Сагдуллаев Б.У., Акбаров Х.И. Термодинамика адсорбции молекулы н-гептана гибридным бионанокомпозитом диацетатцеллюлоза-

ISSN 3030-3907

кремнезем // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2024. 1(115). URL: https://7universum. com/ru/nature/archive/item/16610. С. 46-50.

ISSN 3030-3907

UDK 675.043.84

SINTETIK POLIMERLAR ASOSIDA KIMYOVIY REAGENTLAR VA POLIFUNKSIONAL BIOMATERIALLAR

Qobilov N.S.
O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti, t.f.d., katta ilmiy xodim,
E-mail: nodirbekdoc2020@gmail.com
Yalg‘ashev E.Y.
Tayanch doktorant, O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti,
Tog‘ayev A. I.
Dotsent., Qarshi davlat texnika universiteti
E-mail: abrortogayev93@gmail.com
Olimov J. T.
Tayanch doktorant, O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti,
Qosimova Y.N
Tayanch doktorant, O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti,
ORCID AD: 0009-0002-6634-5821

Annotatsiya. Maqolada sintetik polimerlar poliakrilonitril (PAN) asosidagi yuqori mexanik mustahkamlik, kimyoviy barqarorlik va biotibbiy moslik xususiyatlari keltirilgan. Ushbu materiallar tibbiyot, neft va gaz va farmatsevtika sohalarida tobora keng qo‘llanilib bormoqda. PAN tolalari va nanostrukturalari steril filtrlar, gemodializ membranalari, dori tashuvchi nanokapsulalar hamda biomoslashuvchan implantatsion materiallar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo sifatida xizmat qiladi. Ularning yuqori g‘ovakligi va nazorat qilinadigan yuzasi bioaktiv moddalarni samarali adsorbsiya qilish va chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, PAN asosidagi kompozitlar antibakterial qoplamalar va regenerativ tibbiyotda qo‘llaniladigan scaffold (tayanch) materiallarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: polimer, kimyoviy reagent, struktura, PAN, neft va gaz, tibbiyot.

Abstract. The article presents the properties of high mechanical strength, chemical stability and biomedical compatibility of synthetic polymers based on polyacrylonitrile (PAN). These materials are increasingly used in the medical, oil and gas and pharmaceutical industries. PAN fibers and nanostructures serve as the main raw materials in the production of sterile filters, hemodialysis membranes, drug-carrying nanocapsules and biocompatible implant materials. Their high porosity and controlled surface allow for effective adsorption and release of

ISSN 3030-3907

bioactive substances. Also, PAN-based composites are of great importance in the creation of antibacterial coatings and scaffold materials used in regenerative medicine.

Keywords: polymer, chemical reagent, structure, PAN, oil and gas, medicine.

Аннотация. В статье представлены свойства высокой механической прочности, химической стабильности и биомедицинской совместимости синтетических полимеров на основе полиакрилонитрила (ПАН). Эти материалы все чаще используются в медицинской, нефтегазовой и фармацевтической промышленности. Волокна и наноструктуры ПАН служат основным сырьем при производстве стерильных фильтров, гемодиализных мембран, нанокапсул, содержащих лекарственные препараты, и биосовместимых имплантационных материалов. Их высокая пористость и контролируемая поверхность позволяют эффективно адсорбировать и высвобождать биоактивные вещества. Также композиты на основе ПАН имеют большое значение при создании антибактериальных покрытий и каркасных материалов, используемых в регенеративной медицине.

Ключевые слова: полимер, химический реагент, структура, ПАН, нефть и газ, медицина.

KIRISH.

Polimerlarning tibbiyot, neft va gaz, tp'qimachilik sohalarida qo'llanilishi juda xilma-xil bo'lib, ular yangi kimyoviy reagentlar, tibbiy vositalar, tibbiy asboblar yasashdan tortib, organizm to'qimalarini almashtirishgacha bo'lgan sohalarni qamrab oladi. Polimerlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yuqori molekulyar kimyoviy birikmalardir. Mustahkamligi, yengilligi, egiluvchanligi va kimyoviy inertligi ularni tibbiy va ko'p maqsadlarda foydalanish uchun ideal materialga aylantiradi.

Tabiiy va sintetik polimerlar to'qima muhandisligi va regeneratsiyasi sohasida ko'p yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotchilar muvaffaqiyatli ilg'or polimer biomateriallarni loyihalash uchun ko'plab yangi strategiyalarni ishlab chiqdilar. Ushbu sharhda biz o'z-o'zini tiklash va shaklni eslab qolish xususiyatlariga ega aqlli polimer biomateriallarni tayyorlashdagi so'nggi sezilarli yutuqlarni umumlashtirdik. Shuningdek, biz plyonkalar, gidrogellar va 3D chop etiladigan biomateriallar kabi polimer biomateriallarning turli shakllarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan yangi yondashuvlarni muhokama qilingan. Biomateriallarning yumshoq va qattiq to'qima muhandisligida qo'llanilishi, ularning in vitro va in vivo effektlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olin borilmoqda [1] .

ADABIYOTLAR TAHLILI.

ISSN 3030-3907

Polimerlarning xilma-xilligi, ularning ko‘p qirrali tuzilishi va xususiyatlari tufayli klinik tibbiyotda biomateriallar sifatida turli xil maqsadlarda qo‘llanilmoqda. Polimer biomateriallar tabiiy yoki sintetik polimerlardan olinishi mumkin va bioparchalanadigan yoki parchalanmaydigan bo‘lishi mumkin, bu ularning qo‘llanilishiga qarab, biotibbiy implantlar, ommaviy materiallar yoki implant qoplamalari sifatida, shuningdek, dori va genlarni yetkazib berish uchun nanotashuvchilarni o‘z ichiga olishi mumkin. Adabiyotlarda tibbiyotning muayyan sohalarida polimer biomateriallarining tarixi va rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Polimerlar tibbiyotga yangi yondashuvlar bo‘yicha ba'zi zamonaviy tadqiqotlar ham o‘tkazilgan [2].

Polimer biomateriallar yuqori biologik mosligi (sitotoksik emasligi, bioparchalanuvchanligi va biomosligi), mexanik xususiyatlarining yaxshilanishi va yaxshi qayta ishlash qobiliyati tufayli tibbiyotda keng qo‘llanilishi mumkin. Ushbu xususiyatlardan tashqari, polimer biomateriallarni qayta ishlash jarayonida strukturaviy va morfologik parametrlarni tartibga solish orqali kimyoviy, elektr va fizik xususiyatlarni yaxshilash mumkin. Yuqori klinik talablar tufayli olimlar ilg‘or qayta ishlash texnologiyalarga e'tibor qaratmoqdalar. Bundan tashqari, polimer biomateriallarning o‘ta katta tadqiqot talab qiladigan sharoitlari tufayli, ko‘plab tadqiqotlar polimer biomateriallar klinik qo‘llanmalarda qo‘llanilishidan oldin qanchalik to‘g‘ri qayta ishlanganligini aniqlash uchun ko‘plab aniq tavsiflash usullari o‘rganiladi. Shuning uchun, ushbu tadqiqotlar klinik doirada polimer biomateriallarni ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli umumiy ma'lumot va qo‘llanma berish uchun polimer biomateriallarni qayta ishlash usullari va tavsiflash texnikasini chuqurroq tqdqiq qilinishini talab qiladi. [3].

Polimerlardan tibbiyotda foydalanishning jadal kengayishi bilan bir qatorda, bu sohada hali ham bir qator hal qilinmagan dolzarb masalalar mavjud. Masalan, organizm a’zolari va to‘qimalarini almashtirish uchun polimer komponentlardan foydalanishda ushbu mahsulotlardan voz kechish holatlari uchraydi [4]. Bu polimerlarning organizm to‘qimalari bilan biologik nomuvofiqligi bilan bog‘liq, shuning uchun yaqin kelajakda ko‘plab olimlar va tadqiqotchilarning sa’y-harakatlari yuqori biologik muvofiqlik bilan tavsiflangan yangi polifunksional polimer markalarini ishlab chiqishga qaratilgan [5].

Xizmat funksiyalari boshqariladigan polifunksional biomateriallar - biologik faol polimerlarning boshqa guruhini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar qiziqarli va istiqbollidir. Bunday polimerlardan bo‘shliq operatsiyalari uchun innovatsion tikuv materiallari, ochiq yaralar uchun antiseptiklar yoki dori vositalarini butun tana bo‘ylab tashish uchun vositalar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

ISSN 3030-3907

Organizmda bu materiallar asta-sekin parchalanishga uchraydi, shu bilan birga turli funksional guruhlar hisobiga o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi [6].

Polimerlar va ular asosidagi kompozitlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: asosiy fizik-mexanik xossalarining barqarorligi; suyuq muhitlar va sterillovchi agentlar ta’sirida buyumlarning barqarorligini ta’minlaydigan kimyoviy turg‘unligi (inertligi); tarkibida quyi molekulyar aralashmalar, stabilizatorlar, katalizatorlar va boshqa texnologik qo‘shimchalarning minimal miqdori; hidning yo‘qligi; issiqlik (shu jumladan avtoklavlash) va radiatsiya sterilizatsiyasiga bardosh berish qobiliyati; polimer material bilan aloqada bo‘lgan suyuq tibbiy preparatlar tarkibining barqarorligi; zaharli va kanserogen moddalarning ajralib chiqmasligi; tirik to‘qimalarni jarohatlash xavfining yo‘qligi hamda qon ivishi va gemolizga ta’sir ko‘rsatmasligi; oqsillar, fermentlar denaturatsiyasini boshlash va metabolizm tizimida og‘ishlarni keltirib chiqarish qobiliyatining yo‘qligi; to‘qimalardagi elektr (elektrofizik) muvozanatni buzish qobiliyatining yo‘qligi; tirik organizm tarkibiga kiruvchi kimyoviy moddalar, dori-darmonlar, sterilizatsiya qiluvchi vositalar ta’sirida mexanik parchalanish xavfining yo‘qligi; mahsulot yuzasining barqaror tuzilishi. Poliakrilonitril va uning polifunksional modifikatsiyalari asosida ushbu talablarga javob beradigan biomateriallar olish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Poliakrilonitril (PAN) tibbiyotda, asosan, o‘zining mustahkam va kimyoviy jihatdan chidamli tolalari tufayli tikuvchilik materiallarini ishlab chiqarishda (ayniqsa, yuqori mustahkamlik va biomoslashuvchanlik talab qilinadigan joylarda), shuningdek, tibbiy filtrlar, protezlar va implantlarni yaratishda (to‘qima muhandisligi uchun komponent yoki matritsa sifatida, masalan, suyak implantlarida) va ba’zi qutbli erituvchilarda erishi tufayli dori vositalarini yaratish uchun asos sifatida ishlatiladi.

PAN O‘zbekistonda ishlab chiqariladi, xususan, u "Navoiyazot" AJ tomonidan PAN STP Uz 6,1-46-95 markasi ostida, shuningdek, uning burg‘ilash eritmalari uchun ishlatiladigan gidrolizlangan PAN ("Gipan", K-4) kabi modifikatsiyalari ishlab chiqariladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot institutida mahalliy PAN modifikatsiyalari asosida tibbiyot va farmatsevtikada qo‘llaniladigan polifunksional biomateriallar olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi PAN modifikatsiyalari asosida to‘qima muhandisligida qo‘llaniladigan tibbiyot uchun biomoslashuvchan tolalar, gibrid materiallar, filtrlar va membranalar, qoplamalar uchun yaxshilangan xususiyatlarga ega tolali materiallar (antibakterial xususiyatlarga ega, yuqori

ISSN 3030-3907

biomoslashuvchan va to‘qimalar regeneratsiyasini yaxshilash kabi yangi funksiyalarga ega) yaratishdan iborat. Ushbu modifikatsiyalar implantlar, dori-darmonlarni yetkazib berish tizimlari, filtrlash va biosensorlar uchun yangi avlod materiallarini yaratish imkonini beradi [7].

Modifikatsiyalash uchun kimyoviy modifikatsiyalash usullaridan foydalanish ko‘zda tutiladi: gidroliz, aminlash, amidoksimlash, shuningdek, gidrolizlangan hosilalarni turli faol guruhlarni biriktirib qayta ishlash. PAN gidrolizi natijasida unga dastlabki gidrofillik xususiyati beriladi, bunda nitril guruhlari karboksil (-COOH) yoki amid ($-CONH_2$) guruhlariga aylanadi [8]. Gidroliz darajasini o‘zgartirish orqali olinadigan biomaterialning xususiyatlarini, uning biologik faolligini, kiritiladigan faol guruhlar miqdorini nazorat qilish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Modifikatsiya darajasini spektroskopik usul bilan tekshirish mumkin, bunda 2240 sm-1 sohada (-CN) guruhining cho‘qqisi kamayadi va 1730 sm-1 sohada yangi guruhlar, masalan (-COOH) paydo bo‘ladi.

1-Jadval

Modifikatsiyalangan PAN eng yuqori texnologiyali sohalarda qo‘llaniladi:

Qo‘llanish sohasi	Modifikatsiya turi	Funksiya
Gemodializ	Yuzani gidrofillash	Tromb hosil bo‘lishini oldini oluvchi yuqori biomoslashuvchan membranalar yaratish.
To‘qima muhandisligi	Elektrospinning + biomolekulalar	Teri hujayralari, qon tomirlari va asab to‘qimalarining o‘sishi uchun matritsalar yaratish.
Dori vositalarini yetkazib berish tizimlari.	Sopolimerlar sintezi	Modifikatsiyalangan zanjirlarning rN sezgirligi hisobiga dori vositalarini manzilli yetkazib berish.
Toksinlar sorbsiyasi	Xelatlovchi guruhlarni kiritish	Biologik suyuqliklarni og‘ir metall ionlari va maxsus endotoksinlardan tozalash.

Polifunksional va "aqlli" materiallar olish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar bir vaqtning o‘zida bir nechta funksiyalarga ega bo‘lgan materiallarni yaratishga qaratilgan. Masalan:

Antibakterial faollik + Regeneratsiya: Kumush nanozarrachalari va o‘sish omillari bilan modifikatsiyalangan PAN tolalari.

Stimul-javob: Yallig‘lanish o‘chog‘ida harorat yoki pH o‘zgarishiga javoban o‘z o‘tkazuvchanligi yoki shaklini o‘zgartiradigan polimerlarni yaratish.

ISSN 3030-3907

Amidoksimlash. Bu PANning gidroksilamin (NH2OH) bilan suv-spirtli muhitdagi o‘zaro ta’siridir.

Mexanizmi: nitril guruhi amidoksim guruhiga aylanadi -C (NH_2) =N-OH. Polimer oraliq metallar (Cu^{2+}, Ni^{2+}, Fe^{3+}) ionlarini bog‘lash xususiyatiga ega bo‘ladi. Tibbiyotda u organizmdan ortiqcha temir yoki misni chiqarib yuboradigan gemosorbentlarni yaratish, shuningdek, materialga uzoq muddatli antibakterial ta’sir ko‘rsatish maqsadida kumush ionlarini (Ag^{+}) immobillash uchun ishlatiladi.

XULOSA. Bugungi kunda tibbiyotda polimerlarni qo‘llashning dolzarb yo‘nalishi PAN nanotolalarini elektr yigirish (electro-spinning) yo‘li bilan olish va unga faol guruh tutgan monomerlarni biriktirish, yakuniy bosqichda esa hosil bo‘lgan guruhlarga fermentlar yoki antibiotiklarni biriktirish orqali polifunksional biomateriallar olish hisoblanadi. Bulardan tashqari bu polimerlar asosidagi kimyoviy reagentlar yuqori stabillash xususiyatiga ham ega ekanligi tadqiqotlar bilan asoslandi. Bunday biomateriallar innovatsion intellektual bintlar ishlab chiqarishda, qon ivishining oldini oladigan va yangi endotelial hujayralarning o‘sishiga yordam beradigan sun’iy tomirlarni olishda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, polimer materiallar va kompozitlarni tibbiy amaliyotga o‘z vaqtida joriy etish maqsadida tashkiliy-texnik tadbirlarni tizimlashtirish talab etiladi, bu esa davolash jarayonining umumiy sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cheirmadurai Kalirajan, Amey Dukle, Arputharaj Joseph Nathanael, Tae-Hwan Oh, Geetha Manivasagam A Critical Review on Polymeric Biomaterials for Biomedical Applications. Polymers (Basel). 2021 Sep 6;13(17):3015.

2. Nauman Nazeer, Marya Ahmed. Polymers in medicine. 2020, Polymer Science and Nanotechnology.

3. Cagatay Elibol, ... Kadir Sagir Processing and characterization of polymeric biomaterials. 2023, Handbook of Polymers in Medicine

4. Кочеткова, Е.М. Полимеры в медицине. // Молодой исследователь: вызовы и перспективы: сборник статей по материалам CXCIV международной научно-практич. конф., Москва, 21 декабря 2020 года. Том 47 (194). – Москва: "Интернаука", 2020. – С. 213-215.

5. А.Н. Панченко. Применение полимерных материалов в медицинских целях. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 6-2 (69), 2022. Ст.6-9.

6. Лось Д.М., Шаповалов В.М., Зотов С.В. Применение полимерных материалов для изделий медицинского назначения. Проблемы Здоровья и Экологии. 2020; 64(2): 5-13

ISSN 3030-3907

7. Васнецова ОА. Медицинское и фармацевтическое товароведение: 3-е изд., перераб. и доп. Москва, РФ: Авторская Академия; 2016. 424 с.
8. Каршиев М.Т., Нуркулов Ф.Н. Синтез и исследование модифицированного полиакрилонитрила // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2025. 2(128). Ст.56-59.
9. Рахматов, Х. Б., & Тогаев, А. И. У. (2023). Исследование кинетики реакции высокомолекулярных углеводородов с синтез-газом. Universum: технические науки, (12-6 (117)), 32-36.
10. Rahmatov, X. B., Tog‘ayev, A. I., & Kamolov, L. S. FISHER-TROPSH JARAYONI ASOSIDA BENZIN QATORI SUYUQ UGLEVODORODLAR SINTEZINING ILMIY ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH. ҚарДУ ХАБ, 95.
11. Рахматов, Х. Б., Тогаев, А. И., & Камолов, Л. С. ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ДИМЕТИЛОВОГО ЭФИРА И КОНВЕРСИЯ МЕТАНА В НИЗШИЕ ОЛЕФИНЫ–ЭТИЛЕН, ПРОПИЛЕН И БУТИЛЕН. ҚарДУ ХАБ, 53.
12. Рахматов, Х. Б., Тагаев, А. И., & Камолов, Л. С. ПОЛУЧЕНИЕ СИНТЕТИЧЕСКОГО БЕНЗИНА ИЗ ПРИРОДНОГО ГАЗА. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ТАҲРИРИЯТ ҲАЙЪАТИ: Бош муҳаррир, 72.
13. DAVLAT, A. R. B. N. T., & UNIVERSITETI, T. Tahlilning fizikA-kimyoviy usullari.
14. Omanov, B., & Allanazarova, O. (2024). ETILENDAN VINILASETATNING KATALITIK SINTEZI VA TEXNOLOGIYASI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(15), 160-161.
15. Shaymardon o‘g‘li, T. J. SINTETIK NAFTA TARKIBIDAGI SUYUQ PARAFIN UGLEVODORODLARINING SELEKTIV KATALIZATOR TA’SIRIDA SIKLLANISHI. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI, 43.
16. Yer osti gidravlika” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni hisob dasturi
17. Togayev, A. (2025). PRODUCTION OF HIGH-ACTIVITY CATALYSTS FOR OBTAINING LIQUID HYDROCARBONS FROM NATURAL GAS. Austrian Journal of Technical & Natural Sciences.
18. Qobilov, N. S., & Ergashev, S. J. (2026). MOYLOVCHI MATERIALLAR UCHUN SIRT FAOL MAODDALAR TARKIBI VA TEXNOLOGIYASI. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(1).
19. Qobilov, N. S., & Ergashev, S. J. (2026). YOG ‘-MOY SANOATI CHIQINDILARINING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA ULAR

ISSN 3030-3907

ASOSIDA SIRT FAOL MODDALAR ISHLAB CHIQISH. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 4(1).

ISSN 3030-3907

УДК 532.5

АНАЛИЗ ПОТЕРЬ ВОДЫ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ИЗМЕНЕНИЯ КОЭФФИЦИЕНТА ПРОНИЦАЕМОСТИ ДНА И БОКОВЫХ СТЕНОК КАНАЛОВ

Усмонов Алишер Хабибулло угли

Заведующий кафедрой «Инженерные и цифровые технологии» Университета «Сарбон».

E-mail: alishertuit@mail.ru

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние изменения коэффициента проницаемости дна и боковых стенок каналов на величину потерь воды. Потери воды в оросительных каналах в основном связаны с процессами инфильтрации, которые напрямую зависят от конструкции канала и свойств грунта. В ходе исследования коэффициенты проницаемости дна и боковых стенок канала рассматривались при различных значениях, а изменение величины потерь воды оценивалось с использованием математических и графических методов. Полученные результаты имеют важное значение для рационального использования водных ресурсов, снижения потерь воды в оросительных системах, а также совершенствования процессов проектирования и эксплуатации каналов.

Ключевые слова: канал, потери воды, коэффициент проницаемости, инфильтрация, дно канала, боковые стенки, оросительная система, свойства грунта, гидравлические процессы.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kanallar tubi va yon devorlarining o‘tkazuvchanlik koeffitsienti o‘zgarishining suv yo‘qotilishiga ta’siri tahlil qilinadi. Sug‘orish kanallarida suv yo‘qotilishi asosan infiltratsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon kanal konstruksiyasi va grunt xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida kanal tubi va yon devorlarining o‘tkazuvchanlik koeffitsientlari turli qiymatlarda ko‘rib chiqilib, suv yo‘qotilish miqdorining o‘zgarishi matematik va grafik usullar orqali baholandi. Olingan natijalar suv resurslaridan samarali foydalanish, sug‘orish tizimlarida suv yo‘qotilishini kamaytirish hamda kanallarni loyihalash va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kanal, suv yo‘qotilishi, o‘tkazuvchanlik koeffitsienti, infiltratsiya, kanal tubi, yon devorlar, sug‘orish tizimi, grunt xossalari, gidravlik jarayonlar.

Abstract. This article analyzes the effect of changes in the permeability coefficient of canal beds and side walls on water losses. Water losses in irrigation canals are mainly associated with infiltration processes, which are directly influenced by canal design and soil properties. During the study, various values of permeability

ISSN 3030-3907

coefficients for the canal bed and side walls were considered, and changes in water loss were evaluated using mathematical and graphical methods. The obtained results are of great importance for efficient water resource management, reduction of water losses in irrigation systems, and improvement of canal design and operation processes.

Keywords: canal, water loss, permeability coefficient, infiltration, canal bed, side walls, irrigation system, soil properties, hydraulic processes.

ВВЕДЕНИЕ.

Рациональное использование водных ресурсов является одной из наиболее актуальных задач современного водного хозяйства, особенно в условиях развития орошаемого земледелия и дефицита пресной воды. Значительная часть потерь воды в оросительных системах связана с фильтрацией через дно и боковые стенки каналов, что существенно снижает эффективность водоподачи и приводит к перерасходу водных ресурсов.

Интенсивность фильтрационных потерь определяется физико-механическими свойствами грунта, конструктивными особенностями каналов, а также величиной коэффициента проницаемости дна и боковых стенок. Изменение коэффициента проницаемости может быть обусловлено неоднородностью грунтов, колебаниями уровня грунтовых вод, изменением концентрации солей, а также длительной эксплуатацией каналов. В этих условиях возникает необходимость всестороннего анализа влияния проницаемости элементов канала на величину потерь воды.

В настоящее время для исследования процессов фильтрации в оросительных каналах широко применяются методы математического моделирования и аналитические подходы, основанные на законе Дарси и теории потенциальных течений. Использование таких методов позволяет получить количественные зависимости между параметрами фильтрационного процесса и гидравлическими характеристиками канала, а также оценить влияние изменения коэффициента проницаемости на распределение скоростей, линию депрессии и величину водных потерь.

Постановка вопроса. Фильтрации воды из оросителя бороздового типа ирригационной системы. Почвы грунта являются многофазной и многокомпонентной средой, и состоит из почвенного скелета, которого берем за твердой фазой. Почвенный скелет имеет сложную геометрию и обладает большой удельной поверхностью. Который имеет своего рода большой проницаемостью, т.е. фильтрации жидкостей, поэтому коэффициент фильтрация имеет определённое значение в зависимости от концентрации жидкости.

ISSN 3030-3907

Рассмотрим задачу о фильтрации воды из оросителя бороздового типа ирригационной системы (рис.1.), при этом учитывается капиллярность грунта. Для применения к решению задачи струйного метода Жуковского, оросителя заменим источником жидкости. В дальнейших предположениях, принимая одну из линий равных напоров за поперечные сечения русла оросителя, распространим полученные результаты на случай оросителя, ближнего к трапеции поперечного сечения.

Рассматривается задача о фильтрационном течении воды из канала в плоской постановке ([7],[8]). Предположим, что поток воды течет равномерно по каналу трапецеидального поперечного сечения BCDC'B' со средней скоростью V_T - с расходом:

$$Q = V_1[bH + (B - b)H + \beta\pi]$$

H-глубина потока в канале определяемой равенств и свободной поверхности канала, *b, B*- ширина дна канала.

Где

$$H = \frac{B - b}{2} tg\beta\pi$$

По смещенному периметру *DCB,* происходит протекания жидкости (воды) в почву равномерно, а форма поперечного сечения призматического русла состоит из равнобедренной трапеции, с углом наклона-$\beta\pi$. боковых сторон к горизонтальной плоскости. Тогда вертикальная линия -*DE* будет симметричной линией фильтрационного потока и совпадает с координатной линией oy.Вследствие подвижности потока по (руслам) каналу, жидкость, проникает в грунт под углом $\alpha\pi$ (в область G_z).

Для водоема, где жидкость (вода) находится в колебании равновесия, угол проникание будет равен $\alpha\pi = \frac{\pi}{2}$ (вертикально к стенкам корпуса). Вдали от источника (стенки и дно канала) кривая депрессии становится горизонтальным и это создаёт условию применение рассматриваемой задачи струйную модель И.Е. Жуковского (рис.1). При предположение кривой подпора K_1K (рис1) непроницаемой и расположенной горизонтально.

Канал расположен на поверхности грунта, который имеет коэффициент проницаемости- k. Через смоченный периметр трапеции *BCDC'B'* происходит фильтрации воды, которая распространяется по грунту, а на глубине h_F имеется непроницаемый водоупор *EA*. Если коэффициент проницаемости-$k(x, y)$ симметричен относительно вертикальной оси *ED(Oy)*, то за областью течения G_z *(z=x+iy)* примем *AEDCBF* (где *x>0*), при этом образуется свободная поверхность *AFB*, где точка *F*-является точкой перегиба. При отсутствии точки перегиба точка *F* совпадает с точкой *B*.

ISSN 3030-3907

Вдоль границы *DE*, в основном, происходит вертикальное течение из-за симметрии области течения G_z. В качестве закона фильтрациии принят закон Дарси [1]:

$$\vec{V} = -kgradh \qquad (1)$$

Где $\vec{V}$ – фильтрационная скорость; h- напор.

Здесь:

$$h = \frac{p}{\rho g} + y,$$

Где h - пьезометрическая высота, p, ρ –давление и плотность частиц жидкости, y – ордината точки.

Предположим, что течение потенциальное, тогда можно ввести потенциал скорости $\phi(x, y)$ в виде

$$\vec{V} = u\vec{i} + v\vec{j} = grad\phi.$$

откуда

$$u = \frac{\partial\phi}{\partial x}, v = \frac{\partial\phi}{\partial y}. \qquad (2)$$

Отсюда получим равенство $grad\phi = -kgradh$




Рис. 1. Зависимость потерь воды от изменения коэффициента проницаемости дна и боковых стенок каналов

или

$$\frac{\partial\phi}{\partial x} = -k\frac{\partial h}{\partial x}, \frac{\partial\phi}{\partial y} = -\frac{\partial h}{\partial y}k.$$

При постоянстве коэффициента проницаемости k в области течения будем иметь следующую функцию скорости потенциала:

$$\phi = -kh + C \quad \text{или} \quad \phi + kh = C$$

Если жидкость несжимаема, то:

$$(\rho = const)$$

и поэтому уравнение неразрывности имеет следующий вид:

ISSN 3030-3907

$$div\vec{V} = 0$$

Введем функцию тока, $\psi(x,y)$ удовлетворяющую уравнению неразрывности:

$$u = \frac{\partial\psi}{\partial y}, v = -\frac{\partial\psi}{\partial x}.$$

$$u = \frac{\partial\phi}{\partial x} = \frac{\partial\psi}{\partial y} = -k\frac{\partial h}{\partial x}, \quad v = \frac{\partial\phi}{\partial y} = -\frac{\partial\psi}{\partial x} = k\frac{\partial h}{\partial y}. \qquad (4)$$

Учитывая равенства (2) и (3), получаем следующую зависимость между введенными нами к рассмотрению функциями $\phi(\mathrm{x},\mathrm{y})$ и $\psi = (\mathrm{x},\mathrm{y})$:

$$\frac{\partial\psi}{\partial y} = -k\frac{\partial h}{\partial x}, \qquad \frac{\partial\psi}{\partial x} = k\frac{\partial h}{\partial y}. \qquad (5)$$

Если коэффициент проницаемости κ постоянен, то функция $\phi(\mathrm{x},\mathrm{y})$ $\psi = (\mathrm{x},\mathrm{y})$ и $h(x,y)$ будут гармоническими в области течения, а при переменном к(x,y) в силу равенства:

$$\vec{V}\psi = [gradk, gradh]$$

Получаем, что вдоль линии постоянного напора коэффициент проницаемости должен быть постоянным, т.е.

$$gradk = gradh,$$

отсюда получаем равенство $[gradk, gradh] = 0$.

Решение задачи строим известным методом Жуковского [2]. Для этого введем в рассмотрение каноническую область G_0, (верхнюю полуплоскость, где $\varsigma = \xi + i\eta$ и $\eta = 0$), действительная ось которой совпадает с границей области течения G_z, где *(z=x+iy)*, а также функцию Жуковского

$$\omega(\varsigma) = ln\frac{V_0}{V} = \tau + i\theta(\xi,\eta),$$

Где V_0 −скорость фильтрации в некоторой точке свободной поверхности BFA; $\vec{V} = u - iv$ −сопряженная комплексная скорость, $\tau = ln\frac{V_0}{|V|}, \theta(\xi,\eta)$ − угол наклона вектора скорости $\vec{V}$ к горизонту, т.е. к оси *Ox*.

Для введенной функции $\omega(\varsigma)$ будем иметь следующие граничные условия ([1],[2],[3]):

вдоль KA при $\eta = 0, \xi \in [-\infty, -a], lm\omega = 0,$

вдоль AFB при $\eta = 0, \xi \in [-a, 0], Re\,\omega = \tau_i(\xi),$

вдоль BC при $\eta = 0, \xi \in [0, c], lm\omega = \beta\pi - \alpha\pi,$

вдоль CD при $\eta = 0, \xi \in [c, 1], lm\omega = -\alpha\pi,$

вдоль DE при $\eta = 0, \xi \in [1, e], Im\,\omega = -\frac{\pi}{2},$

вдоль EK при $\eta = 0, \xi \in [e, \infty], lm\omega = 0.$

ISSN 3030-3907

Введя функцию $\omega_1(\varsigma) = \frac{\omega(\varsigma)}{\sqrt{\varsigma}\sqrt{\varsigma+a}}$ и пользуясь интегральной формулой Шварца (4),




Рис. 2. Каноническая область фильтрационного течения

получим аналитическое вкражение для функции Жуковского [5,6]:

$$\omega(\varsigma) = \frac{\sqrt{\varsigma}\sqrt{\varsigma+a}}{\pi}\int_{-a}^{a}\frac{\tau_1(t)dt}{\sqrt{|t|}\sqrt{|t+a|}(t-\varsigma)} - (x-\alpha)I_2(\varsigma) - \alpha I_3(\varsigma) \qquad (6)$$

$$I_2(\varsigma) = \int_0^a \frac{dt}{\sqrt{t}\sqrt{a+t}(t-\varsigma)},\ I_3(\varsigma) = \int_c^1 \frac{dt}{\sqrt{t}\sqrt{a+t}(t-\varsigma)},$$

$$I_1(\varsigma) = \int_{-a}^{a}\frac{\tau_1(t)dt}{\sqrt{|t|}\sqrt{|t+a|}(t-\varsigma)}$$

Для определения неизвестной функции $\tau_1(t)$, используя условие постоянства давления вдоль свободной поверхности AFB, будем иметь равенство (при отсутствии инфильтрации и испарения) (1).

$$\tau_1 = ln\left[\frac{k}{V_0}sin\,\theta\,(\xi)\right] \qquad (7)$$

Учитывая равенство (6) и (7), а также теорему Сохоцкого-Племеля (5), получим следующее сингулярное уравнение вдоль свободной поверхности AFB:

$$\theta(\xi) = \frac{\sqrt{|\xi|}\sqrt{|\xi+a|}}{\pi}\int_{-a}^{a}\frac{ln\left[\frac{k}{V_0}sin\,\theta(t)\right]dt}{\sqrt{|t|}\sqrt{|t+a|}(t-\xi)} + \theta_0(\xi) \qquad (8)$$

Где

$$\theta_0(\xi) = lm[(\alpha-x)I_2(\varsigma) - \alpha I_3(\varsigma)]$$

Решение нелинейного сингулярного интегрального уравнения осуществляется методом последовательных приближений, где за нулевое приближение принимается случай отсутствия силы тяжести и сил поверхностного натяжения $\theta^{(0)} = \theta_0(\xi)$:

$$\theta^{(S)}(\xi) = \frac{\sqrt{|\xi|}\sqrt{|\xi+a|}}{\pi}\int_{-a}^{0}\frac{ln\left[\frac{k}{V_0}sin\,\theta^{(S-1)}(t)\right]dt}{\sqrt{|t|}\sqrt{|t+a|}(t-\xi)} + \theta_0(\xi) \qquad (9)$$

Приведем решение задачи в линейной постановке, где предполагается, что модуль скорости фильтрации на отрезке [a,0] при $\eta = 0$ линейно зависит от ξ:

ISSN 3030-3907

$$V = V_1(a+\xi) = V_0(1+\xi/a) \qquad (10)$$

Тогда $\tau_1(\xi) = ln(1+\frac{\xi}{a})$ и для функции Жуковского в области G_0 имеет вид

$$\omega(\varsigma) = ln[\phi(\varsigma)] \qquad (11)$$

Где

$$\phi(\varsigma) = [F(-a,\varsigma)]^{-2}[F(c,\varsigma)]^{-2\beta}[F(1,\varsigma!]^{2a-1}[F(e,\varsigma)]^{-1}, \qquad (12)$$

$$F(-a,\varsigma) = \frac{\sqrt{\varsigma+a}}{\sqrt{\varsigma}+\sqrt{\varsigma+a}}, \quad F(1,\varsigma) = \frac{\sqrt{a}\sqrt{\varsigma-1}}{\sqrt{\varsigma}\sqrt{a+1}+\sqrt{\varsigma+a}},$$

$$F(c,\varsigma) = \frac{\sqrt{a}\sqrt{\varsigma-c}}{\sqrt{\varsigma}\sqrt{a+c}+\sqrt{c}\sqrt{\varsigma+a}}, \quad F(e,\varsigma) = \frac{\sqrt{a}\sqrt{\varsigma-e}}{\sqrt{\varsigma}\sqrt{a+e}+\sqrt{e}\sqrt{\varsigma+a}},$$

Отсюда находим вкражение для сопряженной комплексной скорости в области G_0

$$\bar{V} = V_0[F(-a,\varsigma)]^{-2}[F(c,\varsigma)]^{-2\beta}[F(1,\varsigma)]^{1-2a}[F(e,\varsigma)]. \qquad (13)$$

Теперь приступим кпостроению функции комплексного потенциала $w = \phi + i\psi$ в области G_0.

Вдоль *BC, DC* при $\eta = 0, \xi \in [0,1], Im\frac{dw}{d\varsigma} = \psi_\xi;$

Вдоль *KA, AB, DE*, и *EK* при $\eta = 0, \xi \in [0,1], Im\frac{dw}{d\varsigma} = 0.$

Учитывая эти краевые условия и интегральную формулу Шварца, получим интегральную равенству:

$$\frac{dw(\varsigma)}{d\varsigma} = \frac{1}{\pi}\int_0^1 \frac{\psi_1 dt}{t-\varsigma} \qquad (14)$$

Отсюда при условии вдоль проницаемкх границ *BC* и *CD* ,$\eta = 0, \xi \in [0,1]$ получим равенство:

$$\phi(\xi,0) = \frac{1}{\pi}\int_0^1 \frac{\psi_1 dt}{t-\varsigma} \qquad (15)$$

Тогда для неизвестной функции ψ_ξ получим следующее сингулярное интегральное уравнение:

$$\psi_\xi = \frac{tg\alpha\pi}{\pi}\int_0^1 \frac{\psi_1 dt}{t-\varsigma} \qquad (16)$$

Решением уравнения (16) получим функцию

$$\psi_\xi = \frac{Q\sin\alpha\pi}{\pi\xi}\left(\frac{\xi}{1-\xi}\right)^a \qquad (17)$$

Далее из равенств (15) и (16) определяем функции $w(\xi)$ и ϕ_ξ:

$$\phi_\xi = \frac{Q\cos\beta\pi}{\pi\xi}\left(\frac{\xi}{1-\xi}\right)^a \qquad (18)$$

Функция комплексного потенциала определится интегрированием из формулы (15):

ISSN 3030-3907

$$w(\varsigma) = \frac{Q}{\pi}\left(\frac{t}{t-1}\right)^{a}\frac{dt}{t} \qquad (19)$$

Используя выражения для комплексной скорости (13) и комплексного потенциала, получим выражение для функции, отображающей область течения $G_{я}$ на область G_0:

$$z(\varsigma) = \frac{Q}{\pi V}\int_0^c \frac{1}{\varphi(t)}\left(\frac{t}{t-1}\right)^{a}\frac{dt}{t} + z_B \qquad (20)$$

Где

$$z_B = b + \frac{B-b}{2} + i\frac{B-b}{2}tg\beta\pi$$

Таким образом, решение задачи определяется выражениями (13), (20), полученными в параметрической форме:

$$\begin{cases}\bar{V} = u - iv = \phi(\varsigma)V_0 \\ z(\varsigma) = \frac{Q}{\pi V_0}\int_0^{\zeta}\frac{1}{\phi(t)}\left(\frac{t}{t-1}\right)^{\alpha}\frac{dt}{t} + z_H\end{cases} \qquad (21)$$

$\bar{V}$-скорость частиц жидкости, $z(\varsigma)$ - характерная функция движущейся жидкости.

РЕЗУЛЬТАТЫ. В результате проведённого математического моделирования и численных расчётов установлено, что коэффициент проницаемости дна и боковых стенок каналов оказывает существенное влияние на величину потерь воды. Расчёты выполнены на основе закона Дарси при различных значениях коэффициента проницаемости в диапазоне

$$k = 10^{-6} \div 10^{-3}\ \text{м/с}$$

Полученные результаты показали, что с увеличением коэффициента проницаемости наблюдается монотонный рост фильтрационных потерь воды. При малых значениях коэффициента проницаемости ($k \le 10^{-5}$ м/с) потери воды незначительны и практически не влияют на общий расход воды в канале. Однако при увеличении коэффициента проницаемости свыше 10^{-4} м/с потери воды резко возрастают, что свидетельствует о высокой интенсивности фильтрационного процесса.

Установлено, что основная доля потерь воды приходится на фильтрацию через дно канала, что связано с большей площадью контакта воды с грунтом. В то же время вклад боковых стенок в общие потери возрастает при увеличении глубины потока и наклона стенок. В случае однородного коэффициента проницаемости дна и стенок канала зависимость потерь воды от коэффициента проницаемости носит близкий к линейному характер.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В результате проведённого исследования установлено, что коэффициент проницаемости дна и боковых стенок каналов

ISSN 3030-3907

ISSN 3030-3907

2. ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida suvni tejash va tuproq namligini barqaror saqlash maqsadida suvni ushlab qoluvchi gidrogellarni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, gidrolizlangan polyakrilonitril (PAN) asosidagi gidrogellar yuqori suv yutish qobiliyatiga ega ekanligi bir qator ilmiy ishlarda ko‘rsatib berilgan [1]–[3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PAN ning ishqoriy gidrolizi natijasida nitril (–C≡N) guruhlarining qisman amid va karboksilat ($–COO^-$) guruhlariga aylanishi sodir bo‘ladi, bu esa polimer zanjirining gidrofilikligini sezilarli darajada oshiradi [4], [5].

PAN gidrolizi natijasida hosil bo‘lgan karboksilat guruhlari suv molekulalari bilan vodorod bog‘lari va ion-dipol o‘zaro ta’sirlar hosil qilib, gidrogellarning yuqori shishish darajasini ta’minlaydi [6]. Shu asosda bir qator tadqiqotchilar PAN asosidagi superabsorbent gidrogellarni olish uchun akril kislota va uning tuzlari bilan kopolimerlash usullarini taklif etganlar [7], [8]. Biroq bunday yondashuvlar kimyoviy monomerlar, radikal initsiatorlar va toksik ko‘ndalang bog‘lovchilar qo‘llanilishini talab qilgani sababli, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan cheklovlarga ega [9], [10].

So‘nggi davr tadqiqotlarida ekologik xavfsiz va biologik parchalanadigan materiallarga bo‘lgan talab ortib borayotgani munosabati bilan tabiiy polimerlar asosidagi gidrogellarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, natriy karboksimetilsellyuloza (Na-CMC) qayta tiklanuvchi xom ashyo asosida olinadigan, biologik parchalanadigan va yuqori gidrofilik xossalarga ega polimer sifatida keng o‘rganilgan [11], [12]. Na-CMC ning ionik funksional guruhlari gidrogel tizimlarida suvni ushlab qolish bilan birga, materiallarning ekologik xossalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

PAN va Na-CMC asosidagi kompozit gidrogellar bo‘yicha olib borilgan ayrim tadqiqotlarda suv yutish va mexanik xossalarning yaxshilanishi qayd etilgan [13]. Biroq mazkur ishlarda ko‘pincha kimyoviy ko‘ndalang bog‘lovchilar **yoki** akril monomerlar ishtirokida tarmoqlangan tizimlar qo‘llanilgan bo‘lib, bu gidrogellarning biologik parchalanish qobiliyatini cheklaydi va tuproq muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [14].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, faqat fizik-ionik tarmoqlashga asoslangan**,** ya’ni kimyoviy ko‘ndalang bog‘lovchilar va monomersiz PAN–Na-CMC gidrogel tizimlari yetarli darajada o‘rganilmagan [15]. Ayniqsa, sanoat PAN tolalari chiqindilaridan foydalanib, suvni ushlab qoluvchi va biologik parchalanadigan gidrogellar olish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar cheklangan.

Shu nuqtai nazardan, PAN tolalari chiqindilarini ishqoriy gidroliz qilish va ularni Na-CMC bilan fizik-ionik tarmoqlash orqali gidrogelga aylantirish masalasi

ISSN 3030-3907

ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, qishloq xo‘jaligida suv resurslarini samarali boshqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

3.1. PAN tolalarining ishqoriy gidrolizi

Tadqiqotda xom ashyo sifatida sanoat chiqindisi bo‘lgan polyakrilonitril (PAN) tolalari qo‘llanildi. PAN tolalari dastlab mexanik aralashmalardan tozalandi va keyingi bosqichda ishqoriy gidroliz jarayoniga tortildi. Gidroliz 1–2 M konsentratsiyadagi natriy gidroksid (NaOH) eritmasida 80–90 °C haroratda olib borildi. Ushbu sharoit PAN zanjiridagi nitril (–C≡N) guruhlarining qisman gidrolizlanishini ta’minlab, ularning amid ($–CONH_2$) va karboksilat ($–COO^-$) guruhlariga aylanishiga imkon berdi.

Ishqoriy gidroliz jarayoni PAN ning kimyoviy tuzilmasini modifikatsiyalab, polimer zanjirining gidrofilikligini sezilarli darajada oshirdi. Natijada PAN gidrogel tizimlari uchun zarur bo‘lgan ionik faol markazlar hosil bo‘ldi, bu esa keyingi bosqichlarda fizik-ionik tarmoqlanish jarayonini samarali amalga oshirishga zamin yaratdi.

Gidroliz yakunlangach, hosil bo‘lgan gidrolizlangan PAN namunalar tarkibida qolgan ishqor qoldiqlarini to‘liq olib tashlash maqsadida distillangan suv bilan bir necha marotaba yuvildi. Yuvish jarayoni eritmaning pH qiymati neytral ($pH \approx 7$) holatga yetguncha davom ettirildi. Tayyorlangan gidrolizlangan PAN namunalar keyingi bosqichlarda gidrogel sintezi uchun foydalanildi.

3.2. PAN–Na-CMC gidrogel tizimini hosil qilish

Gidrolizlangan PAN namunalaridan foydalanib, suvni ushlab qoluvchi gidrogel tizimini shakllantirish maqsadida ularning natriy karboksimetilsellyuloza (Na-CMC) bilan kompozitsiyasi tayyorlandi. Na-CMC oldindan ma’lum konsentratsiyada distillangan suvda eritilib, bir jinsli va shaffof eritma hosil qilindi. Shundan so‘ng gidrolizlangan PAN asta-sekin Na-CMC eritmasiga qo‘shilib, doimiy mexanik aralashtirish sharoitida gomogen tizimga keltirildi.

Aralashtirish jarayonida gidrolizlangan PAN tarkibidagi karboksilat va amid guruhlari bilan Na-CMC ning ionik va gidrofil funksional guruhlari o‘rtasida faol o‘zaro ta’sirlar yuzaga keldi. Ushbu o‘zaro ta’sirlar PAN–Na-CMC tizimining suv muhitida barqaror tarqalishini ta’minlab, uch o‘lchamli tarmoqlangan struktura hosil bo‘lishiga zamin yaratdi. PAN va Na-CMC nisbatlari o‘zgarib borishi gidrogelning suv yutish va biologik parchalanish xossalarini boshqarish imkonini berdi.


Hosil bo‘lgan aralashma ma’lum vaqt davomida dam oldirilib, fizik-ionik tarmoqlanish jarayonining to‘liq kechishi ta’minlandi. Ushbu bosqichda gidrogel tizimi kimyoviy ko‘ndalang bog‘lovchilar va sintetik monomerlar ishtirokisiz

ISSN 3030-3907

shakllanib, ekologik xavfsiz va biologik parchalanadigan material hosil bo‘ldi. Tayyor PAN–Na-CMC gidrogellari keyingi bosqichlarda strukturaviy, morfologik hamda funksional xossalarini aniqlash uchun analitik tadqiqotlarga yo‘naltirildi.

3.3. Fizik-ionik tarmoqlash mexanizmi

Ushbu 1-Sxemada PAN tolalari chiqindilaridan fizik-ionik tarmoqlangan gidrogel hosil bo‘lishining bosqichma-bosqich mexanizmi tasvirlangan bo‘lib, jarayon quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi.



1-bosqich (Sxema 1, I): PAN tolalarining ishqoriy gidrolizi.

Boshlang‘ich PAN tolalari ishqoriy muhitda (NaOH eritmasida) gidroliz qilinadi. Ushbu bosqichda PAN zanjiridagi nitril (–C≡N) guruhlari qisman amid (–$CONH_2$) va karboksilat ($–COO^–$) guruhlariga aylanishi sodir bo‘ladi. Natijada polimer zanjiri gidrofil xususiyatga ega bo‘lib, ionik faol markazlar shakllanadi. Bu bosqich fizik-ionik tarmoqlanish uchun zarur bo‘lgan funksional guruhlarni hosil qiladi.

2-bosqich (Sxema 1, II): Gidrolizlangan PAN ning suvli muhitda faollashuvi.

Gidrolizlangan PAN suv muhitiga o‘tkazilganda, karboksilat va amid guruhlari ionlanadi va polimer zanjiri ochilgan, moslashuvchan holatga keladi. Ushbu holat PAN zanjirlarining boshqa polimerlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishishini osonlashtiradi.

3-bosqich (Sxema 1, III): Na-CMC bilan aralashtirish. Faollashgan gidrolizlangan PAN Na-CMC ning suvli eritmasi bilan aralashtiriladi. Na-CMC molekulalarida mavjud bo‘lgan karboksimetil ($–CH_2–COO^–$) guruhlari suvli muhitda ionlanib, yuqori gidrofilik va elektrostatik faol segmentlarni hosil qiladi. Ushbu bosqich PAN va Na-CMC zanjirlarining yaqinlashishi uchun sharoit yaratadi.

4-bosqich (Sxema 1, IV): Elektrostatik o‘zaro ta’sirlar. Gidrolizlangan PAN va Na-CMC zanjirlari o‘rtasida manfiy zaryadlangan karboksilat guruhlari ishtirokida ionik tortishish va itarilish kuchlari muvozanati

ISSN 3030-3907

yuzaga keladi. Ushbu elektrostatik o‘zaro ta’sirlar polimer zanjirlarining fazoviy joylashuvini tartibga solib, uch o‘lchamli tarmoq shakllanishiga asos yaratadi.

5-bosqich (Sxema 1, V): Vodorod bog‘lari orqali tarmoqlanish. PAN tarkibidagi amid va gidroksil guruhlari bilan Na-CMC ning gidroksil guruhlari o‘rtasida ko‘plab vodorod bog‘lari hosil bo‘ladi. Ushbu bog‘lar elektrostatik o‘zaro ta’sirlar bilan birgalikda polimer zanjirlarini mustahkam bog‘lab, barqaror fizik-ionik tarmoqlangan gidrogel strukturasini shakllantiradi.

6-bosqich (Sxema 1, VI): Uch o‘lchamli gidrogelning barqarorlashuvi. Yakuniy bosqichda PAN–Na-CMC tizimida kimyoviy ko‘ndalang bog‘lovchilarsiz, faqat fizik-ionik o‘zaro ta’sirlar hisobiga barqaror uch o‘lchamli gidrogel hosil bo‘ladi. Ushbu struktura yuqori suv yutish qobiliyatiga ega bo‘lib, suv molekulalarini tarmoq ichida ushlab qoladi va asta-sekin ajratib berish xususiyatini namoyon etadi.

Shunday qilib, Sxema 1 da ko‘rsatilgan mexanizm PAN tolalari chiqindilaridan ekologik xavfsiz, biologik parchalanadigan va suvni samarali ushlab qoluvchi gidrogel materiallarni olishning fizik-ionik asoslangan yo‘lini to‘liq ifodalaydi.

4. NATIJALAR VA MUHOKAMA

4.1. FTIR tahlili

PAN tolalari, gidrolizlangan PAN hamda PAN–Na-CMC asosidagi fizik-ionik tarmoqlangan gidrogellarning kimyoviy tuzilishini o‘rganish maqsadida Fourier infraqizil spektroskopiya (FTIR) tahlili amalga oshirildi. FTIR spektrlari polimer zanjirlarida yuz bergan strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlash hamda gidrogel hosil bo‘lish mexanizmini tasdiqlash imkonini berdi.

Dastlabki PAN tolalari FTIR spektrida 2240–2250 cm^{-1} oralig‘ida yaqqol namoyon bo‘lgan nitril (–C≡N) guruhiga xos cho‘qqi kuzatildi (Jadval 1). Ishqoriy gidroliz jarayonidan so‘ng ushbu cho‘qqining intensivligi sezilarli darajada kamaydi, bu esa nitril guruhlarining qisman gidrolizga uchraganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, gidrolizlangan PAN spektrida 1650–1670 cm^{-1} oralig‘ida amid (–CONH) guruhlariga xos yangi cho‘qqilar paydo bo‘ldi, bu PAN ning kimyoviy modifikatsiyaga uchraganini tasdiqlaydi.

PAN–Na-CMC gidrogel namunasining FTIR spektrida 1550–1570 cm^{-1} va 1410–1440 cm^{-1} oralig‘ida karboksilat ($–COO^-$) guruhlarining mos ravishda asimmetrik va simmetrik tebranishlariga tegishli cho‘qqilar aniqlandi (Jadval 1). Ushbu cho‘qqilar PAN va Na-CMC o‘rtasida ionik o‘zaro ta’sirlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, 3200–3400 cm^{-1} oralig‘ida keng va intensiv –OH/–NH cho‘qqisining kuzatilishi polimer zanjirlari o‘rtasida vodorod bog‘lari shakllanganidan dalolat beradi.

ISSN 3030-3907

Na-CMC ishtirokidagi gidrogellarda 1020–1150 cm^{-1} oralig‘ida C–O–C va C–O bog‘lariga xos cho‘qqilarning paydo bo‘lishi sellyuloza skeletining gidrogel strukturasi tarkibiga muvaffaqiyatli kiritilganini tasdiqlaydi. FTIR natijalari PAN ning ishqoriy gidrolizi va keyingi fizik-ionik tarmoqlanish jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilganini hamda PAN–Na-CMC gidrogel tizimining shakllanganini aniq ko‘rsatadi.

Shunday qilib, FTIR tahlillari yordamida PAN–Na-CMC gidrogellarining kimyoviy tuzilishi, ionik va vodorod bog‘lariga asoslangan tarmoqlanish mexanizmi tasdiqlandi, bu esa Sxema 1 da keltirilgan mexanizm bilan to‘liq mos keladi.

1-Jadval.

PAN, gidrolizlangan PAN va PAN–Na-CMC gidrogellarining FTIR cho‘qqilari

To‘lqin soni (cm^{-1})	**Funksional guruh**	**Tavsif**
2240–2250	–C≡N	Dastlabki PAN tolalariga xos
1650–1670	–CONH	Gidrolizlangan PAN da amid guruhlari
1550–1570	$–COO^-$ (asim.)	Ionik o‘zaro ta’sir belgisi
1410–1440	$–COO^-$ (sim.)	PAN–Na-CMC tarmoqlanishi
3200–3400	–OH / –NH	Vodorod bog‘lari
1020–1150	C–O–C / C–O	Na-CMC va sellyuloza skeleti

4.2. Suv yutish xossalari

Suv yutish darajasini aniqlash.

Suv yutish darajasi (Q) quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$Q = \frac{W_t - W_0}{W_0}$$

bu yerda:

W_0 — quruq gidrogel massasi (g),

W_t —suvda shishgan gidrogel massasi (g),

Q — suv yutish darajasi (g/g).

PAN–Na-CMC asosidagi fizik-ionik tarmoqlangan gidrogellarning suv yutish qobiliyati gravimetrik usulda baholandi. Olingan natijalarga ko‘ra, gidrogellarning suv yutish darajasi PAN tarkibiga Na-CMC miqdori ortishi bilan sezilarli darajada oshdi (Jadval 2). Bu holat Na-CMC ning yuqori gidrofilik

ISSN 3030-3907

xossalari hamda PAN va Na-CMC o‘rtasidagi ionik va vodorod bog‘lariga asoslangan tarmoqlanish bilan izohlanadi.

2-Jadval.

PAN–Na-CMC gidrogellarining suv yutish ko‘rsatkichlari

Namuna	PAN:Na-CMC	Q (g/g)
G-1	100:0	120
G-2	90:10	185
G-3	80:20	260
G-4	70:30	310

Gidrogellarning yuqori suv yutish qobiliyati ularning ichki strukturasida suv molekulalarini bog‘lashga xizmat qiluvchi ionik va gidrofil funksional guruhlar mavjudligi bilan bog‘liq. FTIR tahlillarida aniqlangan $–COO^-$ va –OH guruhlari gidrogellarning suv bilan faol o‘zaro ta’sirga kirishishini tasdiqlaydi. Shu sababli, SEM tahlillarisiz ham gidrogelning samarali suv yutish mexanizmi funksional natijalar asosida ishonchli baholanadi.

4.3. Biodegradatsiya xossalari

Biodegradatsiya darajasini hisoblash formulasi

Biodegradatsiya darajasi (BD, %) quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$BD = \frac{W_0 - W_t}{W_0} \times 100$$

bu yerda:

W_0 — boshlang‘ich massa (g),

W_t — t vaqtdan keyingi massasi (g),

BD — biodegradatsiya darajasi (%).

PAN–Na-CMC asosidagi fizik-ionik tarmoqlangan gidrogellarning biologik parchalanish xossalari tabiiy tuproq sharoitida baholandi. Biodegradatsiya jarayonida gidrogel namunalarining ma’lum vaqt oralig‘ida massa yo‘qotishi kuzatilib, biologik parchalanish darajasi foiz hisobida aniqlanildi (Jadval 3). Ushbu sinovlar gidrogellarning ekologik xavfsizligini va qishloq xo‘jaligida uzoq muddat qo‘llash imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi.

Olingan natijalarga ko‘ra, PAN tarkibiga Na-CMC miqdori ortishi bilan gidrogellarning biodegradatsiya darajasi sezilarli oshdi. Xususan, PAN : Na-CMC = 70 : 30 nisbatidagi namuna uchun 60 kun davomida massa yo‘qotish 78 % ga yetdi, bu esa gidrogelning biologik parchalanishga yuqori moyilligini ko‘rsatadi. Na-CMC ning tabiiy va biologik parchalanadigan polimer ekanligi ushbu jarayonning tezlashishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Biodegradatsiya jarayoni gidrogellarning suv yutish xossalari bilan bevosita bog‘liq ekanligi kuzatildi. Yuqori suv yutish qobiliyatiga ega bo‘lgan gidrogellar

ISSN 3030-3907

tuproq muhitida ko‘proq namlikni ushlab qolib, mikroorganizmlar faolligi uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada, polimer zanjirlarining biologik parchalanishi tezlashadi. Fizik-ionik tarmoqlangan tizimlarda kimyoviy ko‘ndalang bog‘lovchilarning mavjud emasligi ham biodegradatsiya jarayonining samarali kechishiga yordam beradi.

FTIR tahlillarida aniqlangan gidrofil funksional guruhlar ($–COO^-$ va –OH) biodegradatsiya jarayonida muhim rol o‘ynab, gidrogel matritsasining tuproq mikroflorasi bilan o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi. Shu sababli, PAN–Na-CMC gidrogellari kimyoviy ko‘ndalang bog‘langan an’anaviy superabsorbent polimerlarga nisbatan tezroq va ekologik xavfsiz tarzda parchalanishi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, biodegradatsiya natijalari PAN tolalari chiqindilari va Na-CMC asosida olingan fizik-ionik tarmoqlangan gidrogellarning qishloq xo‘jaligi uchun ekologik jihatdan maqbul va barqaror materiallar ekanligini tasdiqlaydi.

3-Jadval.

PAN–Na-CMC gidrogellarining tuproq sharoitidagi biodegradatsiya darajasi

Namuna	PAN : Na-CMC	30 kun (%)	60 kun (%)
G-1	100 : 0	11	22
G-2	90 : 10	21	41
G-3	80 : 20	33	61
G-4	70 : 30	44	78

4.4. Suv yutish va biodegradatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik

PAN–Na-CMC asosidagi fizik-ionik tarmoqlangan gidrogellarning suv yutish xossalari va biologik parchalanish darajasi o‘rtasida yaqqol bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Suv yutish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar natijalari (Jadval 2) PAN tarkibiga Na-CMC miqdori ortishi bilan gidrogellarning shishish darajasi sezilarli oshishini ko‘rsatdi. Xuddi shu tendensiya biodegradatsiya jarayonida ham kuzatilib, Jadval 3 da keltirilgan ma’lumotlar suv yutish qobiliyati yuqori bo‘lgan namunalar tezroq biologik parchalanishini tasdiqladi.

Ushbu bog‘liqlikning asosiy sababi gidrogel tizimining gidrofilik xususiyatlari va ichki muhit bilan izohlanadi. Yuqori suv yutish qobiliyatiga ega gidrogellar tuproq sharoitida ko‘proq namlikni o‘zida saqlab qoladi, bu esa tuproq mikroorganizmlarining faolligi uchun qulay muhit yaratadi. Natijada, mikroorganizmlar tomonidan polimer zanjirlariga ta’sir kuchayib, biologik parchalanish jarayoni tezlashadi.

ISSN 3030-3907

Bundan tashqari, fizik-ionik tarmoqlangan gidrogel tizimlarida suv molekulalarining polimer tarmog‘iga kirib borishi ionik va vodorod bog‘larining qisman bo‘shashishiga olib keladi. Bu holat gidrogel strukturasining yumshashiga va polimer zanjirlarining mikroorganizmlar uchun ochiqligini oshiradi. Kimyoviy ko‘ndalang bog‘lovchilarning mavjud emasligi biodegradatsiya jarayonining erkin va samarali kechishiga imkon yaratadi.

PAN : Na-CMC = 70 : 30 nisbatidagi gidrogel namunasida eng yuqori suv yutish (Q ≈ 310 g/g) va eng yuqori biodegradatsiya darajasi (60 kun davomida ≈ 78 %) aniqlangani ushbu bog‘liqlikni yaqqol tasdiqlaydi. Aksincha, Na-CMC ulushi past bo‘lgan yoki faqat PAN asosidagi gidrogellar suv yutish qobiliyatining cheklanganligi sababli nisbatan sekin biodegradatsiyaga uchradi.

Shunday qilib, suv yutish xossalarining ortishi gidrogellarning biologik parchalanish tezligini oshiruvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Ushbu xususiyat PAN–Na-CMC asosidagi fizik-ionik tarmoqlangan gidrogellarni qishloq xo‘jaligida ma’lum xizmat muddati davomida samarali ishlaydigan va keyinchalik ekologik xavfsiz tarzda parchalanadigan istiqbolli materiallar sifatida tavsiflash imkonini beradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda polyakrilonitril (PAN) tolalari chiqindilarini ishqoriy gidroliz va natriy karboksimetilsellyuloza (Na-CMC) bilan kombinatsiyalash orqali kimyoviy monomersiz, fizik-ionik tarmoqlangan suvni ushlab qoluvchi gidrogellar olish imkoniyati o‘rganildi. PAN ning ishqoriy muhitda gidroliz qilinishi natijasida polimer zanjirida gidrofil funksional guruhlar hosil bo‘lib, gidrogel tizimi shakllanishi uchun zarur bo‘lgan ionik faol markazlar yaratildi.

FTIR tahlillari PAN ning kimyoviy modifikatsiyaga uchraganini hamda PAN va Na-CMC o‘rtasida ionik va vodorod bog‘lariga asoslangan fizik-ionik tarmoqlanish hosil bo‘lganini tasdiqladi. Olingan gidrogellar yuqori suv yutish qobiliyatiga ega bo‘lib, PAN tarkibiga Na-CMC miqdori ortishi bilan shishish darajasi sezilarli oshgani aniqlandi.

Biodegradatsiya tadqiqotlari gidrogellarning tuproq sharoitida bosqichma-bosqich biologik parchalanishini ko‘rsatdi. Na-CMC ulushi yuqori bo‘lgan namunalar qisqa vaqt ichida katta miqdorda massa yo‘qotishiga erishib, gidrogel tizimining ekologik xavfsizligini tasdiqladi. Suv yutish va biodegradatsiya xossalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik aniqlanib, gidrofil va tarmoqlangan struktura biologik parchalanish jarayonini tezlashtiruvchi muhim omil ekanligi isbotlandi.

Umuman olganda, PAN tolalari chiqindilari va Na-CMC asosida fizik-ionik tarmoqlash orqali olingan gidrogellar qishloq xo‘jaligida suvni tejash, tuproq

ISSN 3030-3907

namligini barqaror saqlash hamda sanoat chiqindilarini ekologik xavfsiz qayta ishlash uchun istiqbolli materiallar sifatida baholanadi. Olingan natijalar mazkur gidrogellarning qurg‘oqchil va lalmi hududlarda amaliy qo‘llash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. S. Kabiri, S. H. Zohuriaan-Mehr, and M. Mirzadeh, “Superabsorbent hydrogel composites and nanocomposites: A review,” *Polym. Adv. Technol.*, vol. 22, no. 7, pp. 1145–1161, 2011.
2. Y. Li and R. Bai, “Preparation and properties of hydrolyzed polyacrylonitrile hydrogels,” *J. Appl. Polym. Sci.*, vol. 92, no. 3, pp. 1596–1603, 2004.
3. H. Omidian, S. A. Hashemi, and F. Askari, “Swelling and water-retention behavior of PAN-based hydrogels,” *Polym. Int.*, vol. 59, no. 7, pp. 975–980, 2010.
4. J. Wu, Y. Zhang, and H. Li, “Alkaline hydrolysis of polyacrylonitrile fibers and structural changes,” *Polymer*, vol. 50, no. 8, pp. 1905–1912, 2009.
5. M. Rinaudo, “Main properties and current applications of some polysaccharides as biomaterials,” *Polym. Int.*, vol. 57, no. 3, pp. 397–430, 2008.
6. A. Pourjavadi and M. Hosseinzadeh, “Modified PAN hydrogels with enhanced water absorbency,” *React. Funct. Polym.*, vol. 67, no. 7, pp. 644–654, 2007.
7. L. Zhang, Y. Liu, and J. Wang, “Acrylic acid grafted PAN superabsorbent hydrogels: synthesis and properties,” *J. Appl. Polym. Sci.*, vol. 120, no. 1, pp. 214–221, 2011.
8. R. Guilherme, A. Aouada, A. F. Rubira, and E. C. Muniz, “Superabsorbent polymers in agriculture,” *Eur. Polym. J.*, vol. 72, pp. 365–385, 2015.
9. R. Li, J. Wang, and H. Zhang, “Environmental risks of synthetic superabsorbent polymers in soil applications,” *J. Environ. Chem. Eng.*, vol. 10, no. 6, Art. no. 108912, 2022.
10. S. Ahmed and M. Ikram, “Chemical crosslinkers in hydrogel synthesis: limitations and environmental concerns,” *Mater. Today Chem.*, vol. 14, Art. no. 100223, 2019.
11. K. Thakur, A. Thakur, and V. K. Arotiba, “Carboxymethyl cellulose-based hydrogels: synthesis, properties and applications,” *Int. J. Biol. Macromol.*, vol. 112, pp. 297–305, 2018.
12. M. Sadeghi and H. Hosseinzadeh, “Synthesis and swelling behavior of CMC-based superabsorbent hydrogels,” *J. Appl. Polym. Sci.*, vol. 106, no. 4, pp. 2637–2644, 2007.
13. A. Demitri, M. Zohuriaan-Mehr, and F. Maghsoodi, “PAN–cellulose hydrogel composites for water retention applications,” *Carbohydr. Polym.*, vol. 98, no. 2, pp. 1554–1560, 2013.

ISSN 3030-3907

14. J. Wang, L. Chen, and X. Zhao, “Chemically crosslinked PAN/CMC hydrogels with enhanced swelling properties,” *Polymers*, vol. 14, no. 9, Art. no. 1821, 2022.
15. M. K. Gupta and P. Singh, “Ionic crosslinking strategy for waste-derived hydrogels toward sustainable agriculture,” *Polymers*, vol. 15, no. 8, Art. no. 1764, 2023.

ISSN 3030-3907

UDK: 004.021:004.8:519.24:378

DEVELOPMENT OF AN INTELLIGENT ASSIGNMENT GENERATOR FOR STUDENTS BASED ON QUANTITATIVE MODELING

Ulashev Asrorjon Nasriddinovich
Associate Professor, Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan
Email: ulashevasror8@gmail.com
ORCID: 0000-0001-6049-8267

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot masofaviy ta’lim platformalari uchun topshiriqlar murakkabligini talabalarning bilim darajasiga avtomatik moslashtiruvchi intellektual topshiriqlar generatorini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tizim o‘quvchilar faoliyatini test natijalari, topshiriqlarni bajarish holati va faollik ko‘rsatkichlaridan olingan matematik asoslangan indikatorlar yordamida baholaydi hamda mos topshiriqlarni dinamik tarzda shakllantiradi. Qo‘llanilgan yondashuv adaptiv o‘qitish tamoyillariga asoslangan bo‘lib, talaba natijalaridagi o‘zgarishlarga mos ravishda topshiriqlarni uzluksiz yangilab borishni ta’minlaydi. Tajriba natijalari topshiriqlarni tayyorlashga sarflanadigan vaqtning sezilarli darajada qisqarganini va ta’lim natijalari yaxshilanganini ko‘rsatib, taklif etilgan modelning shaxsiylashtirilgan hamda samarali o‘quv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: intellektual topshiriqlar generatori; masofaviy ta’lim; adaptiv o‘qitish; matematik modellashtirish; avtomatlashtirish; bilimlarni baholash.

Аннотация. В данном исследовании представлена разработка интеллектуального генератора заданий для платформ дистанционного обучения, который автоматически адаптирует уровень сложности заданий к уровню знаний обучающихся. Система оценивает учебную деятельность студентов с использованием математически обоснованных показателей, полученных на основе результатов тестирования, выполнения заданий и показателей активности, и динамически формирует соответствующие задания. Предложенный подход основан на принципах адаптивного обучения и обеспечивает непрерывное обновление заданий в ответ на изменения в учебных результатах студентов. Экспериментальные результаты показывают существенное сокращение времени, затрачиваемого на подготовку заданий, а также улучшение учебных результатов, что подтверждает эффективность предложенной модели для поддержки персонализированных и эффективных образовательных процессов.

Ключевые слова. интеллектуальный генератор заданий; дистанционное образование; адаптивное обучение; математическое моделирование; автоматизация; оценка знаний.

ISSN 3030-3907

Abstract. This study presents the development of an intelligent assignment generator for distance learning platforms that automatically adapts task difficulty to students' knowledge levels. The system evaluates learner performance using mathematically grounded indicators derived from test results, assignment completion, and activity metrics, and dynamically generates appropriate assignments. The applied approach is based on adaptive learning principles and enables continuous updating of tasks in response to changes in student performance. Experimental results indicate a notable reduction in assignment preparation time and improved learning outcomes, demonstrating the effectiveness of the proposed framework for supporting personalized and efficient learning processes.

Keywords: intelligent assignment generator; distance education; adaptive learning; mathematical modeling; automation; knowledge assessment.

INTRODUCTION

The rapid digitalization of education has led to the widespread adoption of distance and blended learning models. While online platforms provide flexibility and accessibility, one of the major challenges remains the effective assessment of students' knowledge and skills. Traditional assignment systems often rely on static and manually prepared tasks, which do not adequately reflect individual differences in students' learning progress [1].

Previous studies have underscored the importance of adaptive learning and personalized assessment. However, the integration of mathematical modeling with automated assignment generation remains insufficiently explored. This research addresses this gap by developing an intelligent assignment generator that dynamically adapts task difficulty based on quantitative knowledge assessment [2].

The main objective of this study is to develop an automated and adaptive assignment generation system and to evaluate its effectiveness using mathematical models. The research contributes a universal framework applicable to various distance learning platforms.

METHODS

System Architecture

The proposed system follows a modular architecture consisting of a database layer, a knowledge assessment module, an assignment generation module, an evaluation module, and a user interface. This structure ensures scalability and flexibility [5]. The modular design allows each component to function independently while exchanging necessary data, which simplifies integration with existing learning platforms.

Mathematical Model of Knowledge Assessment

ISSN 3030-3907

A students knowledge level is quantified using a weighted performance model (Equation 1). In this model, the knowledge level is calculated as a weighted combination of the students test score, assignment performance, and learning activity indicator:

$$K_i = w_1 T_i + w_2 A_i + w_3 L_i, \text{where } \sum_{k=1}^{3} w_k = 1 \qquad (1)$$

where

- K_i denotes the overall knowledge level of the *i*-th student,
- T_i represents the normalized test score,
- A_i denotes the normalized assignment performance measure,
- L_i represents the normalized learning activity indicator, and
- w_1, w_2, w_3 are non-negative weighting coefficients reflecting the relative importance of each component.

The weighting coefficients can be adjusted to emphasize specific performance aspects in accordance with pedagogical priorities and instructional objectives.

Based on the calculated knowledge level, the system selects an appropriate assignment difficulty using a mapping function (Equation 1). For example, the students knowledge score can be mapped to discrete difficulty levels (e.g., *easy*, *medium*, *hard*) by defining threshold ranges. This ensures that each student receives assignments of a difficulty commensurate with their current understanding.

After each assessment cycle, the knowledge level is updated to reflect the students new performance results. The update uses an adaptive formula (Equation 2) that incorporates the latest performance outcome. For instance, one can use an exponential smoothing or weighted update rule:

$$K_i^{\text{new}} = (1 - \alpha)\, K_i^{\text{old}} + \alpha R, 0 < \alpha < 1 \qquad (2)$$

Where R denotes the current performance result (e.g., the score obtained on a newly completed assignment or test), and $\alpha$is the adaptation coefficient (learning rate).

This adaptive knowledge update formula smooths short-term fluctuations by balancing historical performance $\left(K_i^{\text{old}}\right)$ with the most recent result. Smaller values of αassign greater weight to past performance, resulting in slower adaptation, whereas larger values of αincrease sensitivity to recent performance changes.

ASSIGNMENT GENERATION ALGORITHM

Using the above models, an assignment generation algorithm dynamically creates and assigns tasks suited to each students level. The algorithm consists of the following steps:

ISSN 3030-3907

1. Collect student performance data: Gather the students recent performance metrics, including test scores, assignment results, and activity levels.
2. Compute the knowledge level: The students current knowledge level K_i is computed by applying the weighted knowledge assessment model defined in Equation (1) to the collected performance indicators.
3. Determine assignment difficulty: The assignment difficulty level is selected by mapping the computed knowledge score K_i to discrete difficulty classes (easy, medium, hard) using the threshold-based mapping function defined in Equation (2).
4. Select or generate tasks: From the assignment database, select (or algorithmically generate) tasks of the corresponding difficulty level. A pool of tasks is maintained for each difficulty category to enable variety and relevance.
5. Deliver assignments: Present the selected tasks to the student through the learning platforms interface.
6. Evaluate results and update knowledge: Upon task completion, the students performance outcomes are assessed, and the corresponding knowledge level $K_i$is adaptively updated according to Equation (2), ensuring a smooth integration of recent performance into the historical knowledge estimate.
7. Repeat adaptively: Repeat the cycle for subsequent assignments, continuously adapting task difficulty as the students performance evolves.

This algorithm ensures an *adaptive learning loop* where each students progress guides the difficulty of future assignments. By continuously aligning task complexity with the learners current capabilities, the system avoids both overly trivial tasks for advanced students and overly challenging tasks for those struggling, thereby maintaining optimal engagement and learning efficacy.

RESULTS

Adaptive Dashboard Metrics and Progress Model

To evaluate and illustrate the systems behavior, a student dashboard was developed to track learning progress and activity. The dashboard displays several key indicators, each underpinned by a mathematical model:

- **Weekly learning progress.** Displays the proportion of the assigned weekly workload that has been completed by the student, expressed as a percentage (e.g., *"70% completed this week"*).
- **Subject-wise progress.** Displays the assignment completion status for each subject, typically visualized using individual progress bars for each course.
- **Daily task completion.** Displays the students completion status of tasks scheduled for the current day, providing a snapshot of short-term learning activity.

ISSN 3030-3907

- **Activity feed.** Records recent student interactions, such as assignment submissions and received feedback, and provides input data for the calculation of the activity index.

•**Recommended lessons.** Provides targeted learning resources for subjects where the student is lagging behind, supporting timely intervention and adaptive learning. These elements are modeled quantitatively as described below.

For each subject j, the subject-level assignment progress is defined as the ratio of completed assignments to the total number of assigned tasks in that subject. Formally, the progress for subject $j$is given by

$$P_j = \frac{C_j}{N_j}, 0 \le P_j \le 1, \qquad (3)$$

Where N_j denotes the total number of assignments in subject j, and $C_j$represents the number of assignments successfully completed by the student. This metric yields a normalized value between 0 and 1 (or equivalently 0–100%), indicating the students progress within the given subject.

For example, if a student completes 8 out of 10 assignments in *Mathematics*, the corresponding progress value is $P_{\text{Mathematics}} = 0.8(80\%)$. Accordingly, the dashboard visualizes this information using a progress indicator (e.g., *"Mathematics – 80% complete"*).

To obtain an overall measure of the students weekly progress across all subjects, a weighted progress metric is employed, which typically corresponds to the predefined weekly completion target. Since individual subjects may differ in workload or academic importance, a weighted aggregation of subject-level progress is applied. The overall progress is computed as

$$P_{\text{overall}} = \frac{\sum_j w_j \ C_j}{\sum_j w_j \ N_j}, \sum_j w_j = 1, \qquad (4)$$

where w_j denotes the weight associated with subject j, reflecting its relative importance or credit value.

This weighted ratio ensures that subject priorities are appropriately accounted for when computing total learning progress. To align the resulting value with the weekly completion target displayed on the dashboard, the normalized progress is converted into a percentage form, as defined in Equation (4). In practical terms, this involves mapping the fractional value of P_{overall} to a percentage scale and comparing it against a predefined weekly goal.

For instance, if the weekly target is set to 70% and the computed value satisfies $P_{\text{overall}} = 0.70$, the dashboard displays *"70% of weekly goal achieved."*

ISSN 3030-3907

Values below the target indicate insufficient progress, whereas values exceeding 1.0 may correspond to advanced completion or extra-credit activity. This behavior directly corresponds to the *"70% completed"* weekly progress indicator illustrated in the example dashboard.

The daily task completion rate is computed analogously to the subject-level progress metric. Each task scheduled for the current day is modeled as a binary completion variable. For task $i$assigned on a given day, the completion indicator is defined as

$$d_i = \begin{cases} 1, & \text{if task } i \text{ is completed,} \\ 0, & \text{if task } i \text{ is not completed.} \end{cases} \qquad (5)$$

If a total of Dtasks are assigned for the current day, the daily completion rate is calculated as the ratio of completed tasks to the total number of assigned tasks:

$$\delta_{\text{today}} = \frac{1}{D}\sum_{i=1}^{D} d_i \,, 0 \le \delta_{\text{today}} \le 1. \qquad (6)$$

This normalized value represents the proportion of daily tasks successfully completed and is typically displayed on the dashboard as a percentage of *"todays tasks"* finished.

Interpretation. A value of $\delta_{\text{today}} = 0(0\%)$ indicates that no tasks have been completed on the current day, whereas $\delta_{\text{today}} = 1(100\%)$ signifies full completion of all assigned daily tasks.

In addition to progress-based indicators, an overall engagement metric—referred to as the *activity index*—is computed to capture the students learning behavior in a more comprehensive manner (as illustrated in the *Activities* panel of the dashboard). This activity index is formulated as a multi-criteria composite measure that integrates several dimensions of learner behavior, including consistency, recency, and activity volume.

Formally, the activity index is expressed as a weighted combination of its constituent components:

$$I_{\text{activity}} = f(S, R, V), \qquad (7)$$

Where S denotes the activity streak (i.e., the number of consecutive active days), Rrepresents a recency factor reflecting how recently the student was active, and V corresponds to the activity volume, measured as the number of tasks completed within a specified time window (e.g., the previous seven days). In practice, each component is first normalized prior to aggregation.

- **Streak normalization.** The activity streak component is normalized as

$$S' = \frac{S}{S_{\max}}, 0 \le S' \le 1, \qquad (8)$$

ISSN 3030-3907

where S denotes the number of consecutive active days, and $S_{\max}$ is a predefined maximum streak length introduced to cap excessively long streaks and to prevent their disproportionate influence on the overall activity index.

•**Recency decay.** The recency component is modeled using an exponential decay function:

$$R' = e^{-\lambda \Delta t}, 0 \leq R' \leq 1, \qquad (9)$$

where Δt denotes the number of days since the students most recent activity, and $\lambda > 0$ is a decay coefficient controlling the rate at which the activity score decreases over time. This formula ensures recent activity contributes more strongly to the overall activity index, while prolonged inactivity leads to a gradual decline in news rankings.

Activity volume normalization. The activity volume component is normalized as

$$V' = \frac{V}{V_{\max}}, 0 \leq V' \leq 1, \qquad (10)$$

where V denotes the number of tasks completed by the student within a fixed recent time window (e.g., the previous seven days), and $V_{\max}$ represents a predefined maximum workload used to normalize activity volume and to prevent excessive influence of unusually high task completion rates.

These normalized components are subsequently aggregated into a single engagement metric using a weighted combination, subject to appropriate normalization constraints (e.g., the sum of weights equals one). Formally, the composite activity index is defined as

$$I_{\text{activity}} = \lambda_1 S' + \lambda_2 R' + \lambda_3 V', \sum_{k=1}^{3} \lambda_k = 1, \qquad (11)$$

where S', R', and V'denote the normalized streak, recency, and activity volume components, respectively, and λ_k are non-negative weighting coefficients reflecting their relative importance.

The resulting composite index I_{activity} takes values in the interval $[0, 1]$ (or equivalently 0–100%) and represents the students overall engagement level.

Interpretation. For example, a value of $I_{\text{activity}} = 0.56(56\%)$ indicates a moderate and stable level of engagement, suggesting that the student demonstrates consistent activity while still having potential for increased regularity or workload intensity.

The system further incorporates a recommendation engine designed to suggest supplementary learning materials based on the students current progress. A lesson is recommended when the students progress in a given subject falls below

ISSN 3030-3907

a predefined threshold, as formalized in Equation (11).

Specifically, let θ denote a minimum acceptable progress level (e.g., $\theta = 0.5$, corresponding to 50% completion). If the progress for subject $j$satisfies

$$P_j < \theta, \qquad (12)$$

The system automatically generates and displays additional recommended lessons or resources for that subject in the *"Lessons for you"* section of the dashboard.

This threshold-based mechanism explains the presence of recommended lessons for subjects such as *English* and *Mathematics* in the sample interface, as their corresponding progress indicators were below the predefined target level, thereby triggering the recommendation process.

Finally, all these computations are brought together in the dashboard via a progress engine algorithm that runs each time the dashboard is refreshed or the student completes a task. The computation flow for updating the students dashboard is as follows:

Algorithm: Student Dashboard Progress Engine

1. **Data retrieval:** All subjects associated with the student, along with the most recent assignment data—including assigned tasks, completion status, and obtained scores—are retrieved from the system database**.**

2. **Subject-level progress computation:** For each subject j, the subject-level progress $P_j$is computed in accordance with Equation (3).

3. **Overall progress computation:** Subject-level progress values are aggregated using predefined weighting coefficients to calculate the overall progress measure P_{overall}, as defined in Equation (4).

4. **Progress normalization:** The overall progress measure $P_{\text{overall}}$is mapped onto a percentage scale by normalization against the predefined weekly target, resulting in the weekly completion rate specified in Equation (4).

5. **Daily task evaluation:** The completion status of tasks assigned for the current day is assessed to compute the daily completion rate δ_{today}, as defined in Equation (6).

6. **Activity index computation:** The students current engagement is evaluated by calculating the composite activity index I_{activity}, which integrates normalized streak, recency, and activity volume components as specified in Equation (11) and subsequent sub-formulas.

7. **Recommendation generation:** The system evaluates subject-level progress and identifies subjects with $P_j < \theta$, subsequently generating targeted learning recommendations for those subjects as specified by Equation (12).

ISSN 3030-3907

8. **Dashboard update:** All dashboard components are refreshed to reflect the latest computed values, including subject-level progress bars, overall weekly completion indicators, daily task completion status, the activity engagement index, and recommended lessons.




Figure 1. Adaptive assignment management and analytics dashboard.

Each of the main dashboard indicators is based on a specific type of algorithm, as summarized below:

Table-1.

Algorithmic aggregation of key performance indicators

Indicator	**Algorithm Used**	**Mathematical Basis**
Weekly Progress	Weighted ratio algorithm	Deterministic (linear)
Today's Completion	Conditional ratio algorithm	Deterministic (linear)
Bayesian Performance (β_{total})	Beta-Binomial Bayesian inference	Probabilistic (Bayesian)
Activity Index	Normalized composite index	Multi-criteria (hybrid)




Figure 2. Learner analytics dashboard based on deterministic and Bayesian performance indicators.

Bayesian Performance Estimation (β_{total})

A key contribution of the proposed dashboard is the introduction of a Bayesian performance coefficient, β_{total}, which yields a statistically grounded estimate of student task success by incorporating uncertainty associated with limited observational data. The coefficient is formulated within a Beta–Binomial Bayesian modeling framework:

1. Each task outcome is modeled as a Bernoulli random variable

$$X_i \sim \text{Bernoulli}(p),$$

ISSN 3030-3907

where $p$denotes the students probability of successful task completion.

2. **Prior distribution (uncertainty modeling).** Prior to incorporating the students observed performance data, a prior probability distribution is specified for the success probability p. A conjugate Beta prior is adopted:

$$p \sim \text{Beta}(\alpha_0, \beta_0), \qquad (13)$$

where $\alpha_0 > 0$ and $\beta_0 > 0$ are hyperparameters encoding prior beliefs about the students task success rate. In the absence of prior knowledge, a non-informative choice $\alpha_0 = \beta_0 = 1$ is employed, which corresponds to a uniform distribution over the interval $[0, 1]$.

The use of a Beta prior ensures statistical stability of the estimation process, particularly in scenarios with a limited number of observations, by preventing extreme probability estimates at early learning stages.

3. **Observation aggregation.** After the student completes N assignments (trials), the total number of successful task completions is denoted by

$$K = \sum_{i=1}^{N} X_i , \qquad (14)$$

where $X_i \in \{0,1\}$ represents the outcome of the i-th task. This aggregation summarizes the cumulative evidence obtained from all observed task outcomes and serves as the sufficient statistic for subsequent Bayesian updating.

4. **Posterior distribution (Bayesian update).** By applying Bayes' theorem, the prior distribution is updated using the observed task outcomes. Owing to the conjugacy between the Bernoulli likelihood and the Beta prior, the posterior distribution of the success probability $p$is obtained in closed form as

$$p \mid \mathbf{X} \sim \text{Beta}(\alpha_0 + K,\ \beta_0 + N - K), \qquad (15)$$

where K denotes the number of successful task completions and N is the total number of observed tasks. This posterior distribution represents the updated belief about the students underlying probability of successful task completion after incorporating evidence from N observed assignments.

5. **Expected value (dashboard output).** The Bayesian performance coefficient β_{total} is defined as the expected value of the posterior distribution of the success probability p. For a Beta-distributed posterior, this expectation admits a closed-form expression. Specifically, given

$$p \mid \mathbf{X} \sim \text{Beta}(\alpha_0 + K,\ \beta_0 + N - K),$$

the expected value is computed as

$$\beta_{\text{total}} = \mathbb{E}[\, p \mid \mathbf{X}\,] = \frac{\alpha_0 + K}{\alpha_0 + \beta_0 + N}. \qquad (16)$$

ISSN 3030-3907

This coefficient takes values in the interval $[0, 1]$ (or equivalently 0–100%) and serves as the Bayesian performance indicator displayed on the dashboard.

$$\beta_{\text{total}} = \frac{\alpha_0 + K}{\alpha_0 + \beta_0 + N}. \qquad (17)$$

The coefficient β_{total} is displayed on the dashboard as the *Bayesian performance* indicator. It represents a statistically adjusted estimate of the probability of successful task completion, obtained by integrating the students observed performance outcomes with prior belief encoded by the Beta distribution. This Bayesian formulation provides a more stable and reliable performance measure than raw completion ratios, particularly in scenarios with limited observational data.

Interpretation. For example, a value of $\beta_{\text{total}} = 0.48(48\%)$ indicates that, given the students observed performance data and the assumed prior distribution, the model estimates an approximately 48% probability of successfully completing a newly assigned task. Compared to a raw success rate, this Bayesian estimate provides a more stable and reliable performance indicator, particularly when the number of observed tasks N is small, as the Bayesian framework naturally shrinks extreme estimates toward the prior expectation.

Recent Submissions Ordering and Scoring Model

Another component of the system is the *Recent Submissions* panel, which displays the students most recent assignment submissions together with their corresponding scores. The ordering and scoring of submissions in this panel follow a predefined algorithmic principle.

Let S denote the set of recent submissions associated with a given student:

$$S = \{s_1, s_2, \dots, s_n\}. \qquad (18)$$

Each submission $s \in S$ is represented as an ordered tuple:

$$s = (\text{course}(s), \text{date}(s), \text{score}(s)), \qquad (19)$$

Where $\text{course}(s)$ denotes the course or subject name, $\text{date}(s)$ represents the submission timestamp, and $\text{score}(s)$ is the normalized performance score obtained for that submission.

The set of submissions is ordered using a composite sorting key that prioritizes chronological recency and performance quality, as formalized in Equation (19).

This ordering strategy ensures that the *Recent Submissions* panel simultaneously highlights the most up-to-date student activity and draws attention to assignments with stronger performance outcomes.

Scoring Normalization Model

ISSN 3030-3907

